

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK
Qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

YADGAROVA MEHRIBAN ABDULLAEVNA
«O‘ZBEK ROMANCHILIGIDA QATAG‘ON MAVZUSINING
BADIIY TALQINI
(Shuhratning «Oltin zanglamas» va O‘.Hoshimovning
«Tushda kechgan umrlar» asarlari misolida)»

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

dots. B.Atashev

Kafedra mudiri:

dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

dots. S.Matyakupov

NUKUS – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. HAYOT HAQIQATINI IFODALASHDA ADABIY TALQIN O‘RNI	
1.1. Davr ruhi va inson taqdirining munosabatli talqini.	5
1.2. Badiiy tafakkur qamrovida mutanosiblik va o‘ziga xoslik.....	7
II BOB. BADIY TABDILDA TIPOLOGIK MUSHTARAKLIK HAMDA IJODIY INDIVIDUALLIK	
2.1. Muhit va shaxs qiyofasini ochishda tafsilot hamda tasavvur uyg‘unligi	8
2.2. Tasvir haqqoniyligi va badiiy g‘oya mohiyati	9
III BOB. HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY MAHORAT MASALASI	
3.1. Qahramon yaratish tamoyillari.	75
3.2. Realistik talqin va badiiy mahorat.	56
XULOSA	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	89
Ilova (mavzuni ta’lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar)	

KIRISH

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Yaxlit bir poetik solnoma, butun g'oyaviy-estetik hodisa tarzida tarixga evrilgan XX asr o'zbek nasri murakkab mafkuraviy-maishiy muammolarni imkoniyat darajasida tahlil obyektiga aylantirdi. Binobarin, ijodiy o'ziga xoslik va ijtimoiy sifat ko'rsatkichi barobarlashgan sharoitda ba'zan zamonasozlik hamda murosasozlik ohanglari-da qabarib ko'rinadi. Ayni paytda, haqiqat va ma'naviy muhit ziddiyatlarini batafsil ifodalashga moyil, axloqiy mezon atmosferasini belgilaydigan san'at namunalari ham yuzaga keldi. Ijod maqomi hamda badiiyat taqozosini omuxtalashtirgan poetik talqinda badiiy so'z mohiyati ancha teranlashdi. Shaxs manfaat-ehtiyojlari, maqsad-intilishlarini davr ruhiga hamohang tasvirlash ijodiy an'ana tusiga kirdi. Aslida har bir yozuvchi "o'z iste'dodi bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo'lishdek og'ir va murakkab, ulug' bir vazifani zimmasiga olgan ekan, avvalo, el-yurt oldidagi farzandlik burchini, grajdanlik pozitsiyasi va mas'uliyatini chuqur sezishi, anglashi hal qiluvchi ahamiyat"¹ kasb etadi. Shu ma'noda, jiddiy o'zgargan shakl va mazmun, takomillashgan obrazlar taqvimini hamda yangilangan estetik ideal davr ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy manzarasini suvratlashi, muayyan tadqiqot sahniga olib chiqishi va falsafiy umumlashmalar yaratishi nuqtai nazaridan reallashdi. Uning ma'rifiy xususiyati, ayniqsa, tahlil hamda talqin vositasida baholash mezonlariga aniqlik kiritishda yorqin namoyon bo'ladi. Tabiiyki, bu jarayonda jamiyat hayotini sog'lomlashtirish va dunyoqarashni to'g'ri yo'lga solish yetakchi mavqega erishadi.

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: "O'zbekiston", 2009. –B. 17.

Komparativistika, eng avvalo, voqelik san'at tiliga ko'chishi, obraz mohiyatida namoyon bo'lishiga mustahkam zamin hozirlaydi. Aynan harakat va holat aloqadorligini ta'minlovchi omil, u adabiy talqinning milliy tizim yoki jahon madaniyatida tutgan o'rnini belgilash, yozuvchi o'ziga xos istedodini, mahoratini va ifoda uslubini aniqlash barobarida ijod qonuniyatlariga daxldor tipologik xususiyatlarni ham oydinlashtirish imkonini beradi. Unda hodisa ruhiyatini turli rakurslardan kuzatish, muayyan qadriyaviy o'lchamda tahlil qilish va baholash mezonini vujudga keladi. Mavjud holat tasvir predmetini teranroq ifodalashga yo'l ochadi. Qiyoslash adabiyot spesifikasini asosiy planga chiqaradi.

XX asr insoniyat tamaddunida keskin yuksalish, tub o'zgarishlar, olamshumul kashfiyotlarni hosil qildi. Jiddiy yangilangan odamzod dunyoqarashi ma'naviy tannazzul, ommaviy qirg'inbarotlar, ocharchilik hamda vabo kabi ofatlar bilan to'qnashdi. Shunday balolardan biri "qatag'on" balosi sanaladi. Albatta, jarayon tarixchi-olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilinganidek, badiiy adabiyotda ham mazkur muammoga munosabat bildirildi.

Biz ilmiy ishimizda romanlarda qatag'on jarayoni mohiyati, uning sabab-oqibatlarini va inson shaxsiga tajovuzi to'g'risida ilmiy mushohada yuritamiz. Joriy holat mohiyatini yoritish maqsadida taqdim etilayotgan tadqiqotda Shuhratning "Oltin zanglamas" va O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari tipologiyasini muammo poetik talqini misolida nazariy umumlashtirish asosiy obyekt sifatida belgilab olindi.

Munaqqid O.Sharafiddinov yozadi: "Bugungi adabiyot, badiiy tafakkurimizda erishishimiz kerak bo'lgan eng muhim jihat – voqelikka dunyoga munosabatda yangi aspektlarga chiqish, dunyoni yangicha, chuqurroq, yuksakroq idrok qilishga o'tish. Binobarin, dunyoning, jamiyatning, insonning mohiyatini kengroq ochishga harakat qilishimiz

kerak”¹. Darhaqiqat, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan pirovard o‘zgarishlar jamiyatni, ma’lum davr murakkab qirralarini yangicha tamoyillar asosida talqin qilar ekan, shaxs konsepsiyasini baholash me’yorlari ham o‘zgaradi. Estetik tamoyillar o‘zgaruvi, inson xarakteridagi ziddiyatlarni, ijtimoiy muhit o‘rtasidagi vujudga kelayotgan qarama-qarshiliklarni davrlararo mafkura nuqtai nazaridan talqin etish ikki romannavis ijodida ham o‘ziga xos ifodasini topgan. Ana shu mezonlar asosida roman haqidagi qarashlarni umumlashtirish mavzu tanlovi dolzarbligini belgilaydi. Adabiyot nazariyasi va estetikasida o‘zbek romanlarida qatag‘on mavzui qiyosiy-tipologik aspektda maxsus o‘rganilmagan. Analogik talqin masala mohiyatini to‘laqonli tasavvur qilishga yordam beradi. Mana shu jihat tadqiqot mavzu dolzarbligi va nazariy qiymatini belgilab beradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Adabiyotshunoslik tarixida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani davr ilmiy aspekti kesimida munaqqidlar U.Normatov, D.Quronov, A.Samad, M.Sharofiddinova, Sh.Ismatova, S.Ahmad, M.Imomqulova, U.To‘rayev, Q.Norqobilov, O.Duysenbaevlar nazariy qarashlarida muayyan darajada umumlashtirilgan. Shuxratning “Oltin zanglamas” romani ham N.Karimov, S.O‘rinboyeva, I.G‘afurov, Sh.Rizayev, N.Soatova, Q.Qahramonov, T.Hayitlar kabi olimlar tadqiqotlarida jiddiy tahlilga tortilgan¹.

Biroq tadqiqot obyekti sifatida tanlangan romanlar tipologiyasi, ularning mavjud ijtmioiy muhit, adabiy jarayon bilan mutanosiblikdagi ilmiy-nazariy

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004- yil. 247-bet.

¹ Sulton. I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1986; Nazarov. B. Bu sehrli dunyo. –T.: Adabiyot va san’at nashriyati, 1980; Sharofiddinov O. Hayot bilan hamnafas. –T.: Yosh gvardiya, 1983.; Mirvaliyev S. O‘zbek romani. –T.: Fan, 1969; Mirvaliyev S. Roman va zamon. –T.: Fan, 1983; Qo‘shjonov M. O‘zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari // Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. Birinchi jild. –T.: Fan, 1991; Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. –T.: Adabiyot va san’at, 1978; Normatov U. Umidsaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000; Umurov H. Badiiy ijod asoslari . –T.: O‘zbekiston, 2001; Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. –T.: 2004; Solijonov Y. Nutq va uslub . –T.: Cho‘lpon, 2002; Boltaboyev H. Nasr va uslub. –T.: Fan, 1992, Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylilik . –T.:Fan, 1994.

tahlili hanuz-hanuzgacha maxsus monografik yo'sinda nazariy jihatdan o'rganilmagan.

Ishning metodologik asosini belgilashda milliy istiqlol g'oyasi, yurtboshimiz I.Karimovning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi haqidagi asarlari, nutqlari tashkil etadi. Shuningdek, magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida I.Sulton, O.Sharafiddinov M.Qo'shjonov, N.Karimov, B.Nazarov, P.Qodirov, U.Normatov, I.G'afurov, A.Rasulov, B.Akramov, B.Sarimsoqov, I.Haqqul, N.Rahimjonov, Suvon Meli, A.Ulug'ov, U.Hamdamiyov, U.Jo'raqulov kabi o'zbek olimlarining badiiy adabiyot poetik mohiyati, badiiy so'z estetikasi masalalariga bag'ishlangan asarlaridagi mushohadalar ilmiy-metodologik asos vazifasini o'tadi. Taqdim etilayotgan tadqiqot tahlili o'rni-o'rni bilan badiiy tahlil, qiyosiy-tipologik va tarixiy-analogik usullar mushtarakligi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Ilmiy ishdan ko'zlangan asosiy maqsad tarixiy haqiqatning badiiy talqini mohiyatini ikkala roman tipologik tahlili misolida qiyosiy – funksional va qiyosiy - tarixiy jihatdan tahlil etish hamda o'ziga xosligini yoritishdan iborat. Magistrlik dissertatsiyasida ko'zlangan maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqotda quyidagi hal qiluvchi **vazifalar** belgilab olindi:

- milliy ma'naviyat takomilida adabiy talqin vazifaviy ahamiyatini aniqlash;
- tarixiy haqiqatni badiiy talqin etish jarayonida ijodiy alohidalik va tipologik mushtaraklik aloqadorligiga alohida e'tibor qaratish;
- tarixiy voqelikni individual baholash mezonlari va takomilini kuzatish;
- Shuhrat va O'.Hoshimov ijodiari qatag'on mavzui hozirgi o'zbek tanqidchiligida o'rganilish darajasini umumlashtirish;
- romanlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish;
- muallifning xarakter yaratish mahoratini tavsiflash;

–romanlarda hayotiy haqiqat va adabiy mahorat masalasini yoritish.

Ilmiy yangiligi. O‘.Hoshimov hamda Shuhrat ijodi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, O‘.Hoshimov ijodi, xususan, “Tushda kechgan umrlar” romani borasida qilingan ishlar nihoyatda salmoqli. Har ikkala asarga ham biz tadqiq qilayotgan qatag‘on voqeligi yoritilishi yuzasidan ayrim mulohazalar bildirilgan. Lekin aynan mazkur ikki roman bir-biriga qiyosan tadqiq qilinmagan. Bu borada taqdim etilayotgan tadqiqot yangilik bo‘lib, maxsus obyekt sifatida ilk bora mustaqillik mafkurasi negizida shakllangan qarashlar asosida yoritildi hamda mavjud ijtimoiy hayot hamda adabiy tanqidchilik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot asosiy masalalari va tahlil natijalari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy farazlar quyidagilarda aks etdi:

- Shuhrat va O‘.Hoshimov romanlarida qahramonlar talqinining muayyan davr psixologiyasi bilan hamohangligi;
- yozuvchilar badiiy tafakkurida individual yondashuv hamda estetik tamoyillar rang-barangligi tavsifi;
- inson taqdirini badiiy talqin qilish hamda ularda davr ruhiyatiga munosabat masalasini aks ettirishdagi o‘ziga xoslik;
- ma’naviy-axloqiy muammolar talqini;
- adiblar ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar;
- “Oltin zanglamas” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida inson qadri masalasini tahlil qilishda romanlar yaratilgan davr adabiy tanqidchiligiga ham bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirish.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Dissertatsiyada jahon, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, roman janri o‘ziga xosligi hamda Shuhrat va O‘.Hoshimov ijodiy tadrijiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar, ilmiy qarashlar jiddiy o‘rganib chiqildi. Shuningdek, adiblar ijodi shakllanishi hamda taraqqiyoti,

hozirgi adabiy jarayonda tutgan maqomi masalasiga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida adabiyotshunos olimlarning Shuhrat va O'.Hoshimov ijodi, shuningdek, o'zbek romanchiligi muammolari xususidagi tadqiqot va ilmiy maqolalarga tayanilgan holda qiyosiy tahlildan keng foydalanildi. Tahlil qilingan romanlarda o'zlarining ifoda etmoqchi bo'lgan g'oyalarini aks ettirishda yozuvchilar uslubidagi mutanosiblik va o'ziga xoslikka alohida e'tibor qaratildi. Xususan, tadqiqotning obyekti bo'lgan romanlarda inson taqdirini keng talqin qilishda adiblar ijodiga xos bo'lgan xususiyatlarni tahlil qilish maqsadida ba'zi o'rinlarda boshqa romanlarga ham murojaat qilingan tarzda qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan o'rinli va unumli foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natija va xulosalari adabiyotshunoslik va tanqidchilikda Shuhrat, O'.Hoshimov ijodini o'rganish hamda shu orqali adabiy tanqid rolini ko'rsatish, tahlil qilingan romanlarda davr g'oyasining yoritilishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ish umumiy xulosalaridan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida Shuhrat hamda O'.Hoshimov ijodi o'rganilishi, qolaversa, o'zbek tanqidchilari adabiy jarayonga munosabati masalasini tadqiq etishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari oliy ta'lim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda Shuhrat va O'.Hoshimov ijodini o'rganish, shu bilan bir qatorda yozuvchilar ijodi ommalashishida tanqidchilikning rolini ko'rsatish, romanlarda qatag'on mavzusi badiiy talqin qilinishi bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish, kurs ishlari tayyorlashda qo'l keladi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta asosiy bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 92 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

HAYOT HAQIQATINI IFODALASHDA ADABIY TALQIN O‘RNI

1.1. Davr ruhi va inson taqdirining munosabatli talqini

Ma'lumki, inson ruhiy borlig'i, uning o'y-kechinmlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini tasvirlash hamisha badiiy adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Tadrijiy takomillashib, rivojlanib kelayotgan o'zbek romani qiyofasi hamda nufuzi kechagidan tubdan tafovutlanadi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari yangicha talqinlarni idrok etishni taqozo etmoqda. Har bir davr badiiyat solnomasi mohiyatida millat orzulari aks ettiriladi. Davr hodisalari, zamon o'zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-adabiy kayfiyatlar oqimi qalbga yo'naladi, uning zarblariga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar qalbning o'ta shaxsiy, shu barobarda o'ta ijtimoiy mahsuli bo'lganligi bois, zamonning o'zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o'z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o'zgarishlar, o'sishlar tasvir oynasi. Unda g'oya taraqqiyoti, inson ongi va ma'naviyati o'sish tarixi, ijobiy yangilik kasb etish jarayonini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o'zga ijodkor qayta tiklagan iroda yo'nalishidan tubdan tafovutlanadi. Biroq joriy qahramon tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjudki, holat, eng avvalo, tarix falsafiy-badiiy tadqiqoti jarayonida yanada bo'rtibroq ko'zga tashlanadi.

Yaqin moziyda shunday ijtimoiy muammo darajasiga ko'tarilgan salbiy illatlardan biri qatag'on jarayoniga payvandlanadi. Rasmiy lug'atlarda unga quyidagicha muxtasar ta'rif beriladi: Qatag'on qilmoq (yoki yo'q qilmoq): 1) Bekor qilmoq, yo'q qilmoq; 2) Quvg'in qilmoq, repressiya¹.

Repressiya (lotincha repressio – bosim, tazyiq) davlat organlari qo'llaydigan jazo chorasi, qatog'on qilish, asosan, mustabid davlatlar

1 "O'zbek tilining izohli lugati" T.: O'zbekiston milliy entsiklopedyasi. 1999 5-tom B.259.

tomonidan xalqqa nisbatan qo'llaniladigan harbiy jazolash, qatli om, qatli nufus, ommaviy tarzda zulm o'tkazish tushunchalarni ifodalaydi. Ommaviy jazolash, qiynoqqa solish choralari mustabid davlatlarning xalqni asoratda ushlash, qo'rqitish, bosim o'tkazish qurolidir. Mustamlakachi davlatlar o'zlariga tobe o'lkalarda xalqning noroziligini, ijtimoiy - siyosiy ozodlik xarakatini bostirish tag - tugi bilan yo'qotish uchun harbiy, siyosiy, iqtisodiy repressiyalarni qo'llaganligi tarixdan ma'lum. Chor hukumati Turkistonni bosib olgan birinchi kundan xalqni qo'rqitish va vahimada ushlash siyosatini olib bordi. Chor imperyasi qulagach, imperiya vorisi sobiq SSSR bu jarayonni mamnuniyat bilan davom ettirdi¹.

Tarixdan ma'lumki, XX asr avvalida Rossiyada podsho hukumati ag'darilib, mamlakatni kommunistlar egalladilar. Chor Rossiyasi va unga qaram o'lkalarda imperiya vorisi sifatida dunyoning 6/1 ni egallagan katta mamlakat "yo'qsillar davlati" tashkil topdi. Yangi davlat Sovet sotsiolistik respublikalari ittifoqi (SSSR) tashkil qilinishi bilanoq iqtisodiy va siyosiy bo'xronlarga duch keldi. Buning ustiga O'rta Osiyoda Turkiston Muxtoriyati vahshiylarcha qonga botirilgach, Farg'onada boshlangan "bosmachilik" harakati yangi davlatga xavf solar edi. Kommunistik partiya rahbarlari har qanday yo'l bilan yangi davlatni mustahkamlashga kirishdilar. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ning qabul qilinishi shundoq ham nochor iqtisodiyotni qoloq holga olib keldi. Kolxozlashtirishning (jamoalar xo'jaligi) boshlanishi mavjud vaziyatni yanada taranglashtirdi. VKP(b)MK siyosiy boshqarmasining "yoppasiga kolxozlashtirish, rayonlarda quloq xo'jaliklarni tugatish tadbirlari to'g'risida" gi qarori va quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar quloq va o'rtahol dehqonlarga nisbatan respublikadagi siyosiy vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Quloq xo'jaliklaridan tortib olingan yer va boshqa mol-mulklar davlatga musodara qilindi. Kommunistik partiya

¹ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1999. 7-jild. –B.168-169.

yetakchisi Vladimr Ilich Leninning "...yer dehqonlarga, sanoat korxonalari ishchilarga, hokimyat sovetlarga" shiori bilan chiqishi iqtisodiy bo'xron sharoitida sovetlar orqasidan ergashuvchi olomonning ko'payishiga zamin hozirladi. Qizil imperiyaning barcha yerlarida, xususan, O'rta Osiyoda ham sovetlarga ishonch oshib bordi. Keng mehnatkashlar ommasi, oddiy fuqorolar va ziyolilar revalyutsiyani zo'r umid bilan qarshi oldilar. Cho'lpon "...inqilob Sharqni qul emas hur qilgusidir.¹ deb yozgan bo'lsa, Qodiriy "Biz inqilobdan katta jasorat oldik, so'z erkinligi oldik"² deya yozadi.

Bolshveklar yetakchisi Lenin vafotidan so'ng hokimiyat uchun kurash boshlanib ketadi. Partiyada ikki qatlam vujudga keladi. Trotskiy va Stalin guruhi. Trotskiyga qarshi kurashda Stalin atoqli partiya va davlat arbobi Buharindan unumli foydalandi. Trotskiy jismonan mahv etilgach navbat boshqalarga keldi. Ularning birinchisi Buharin bo'ldi. Buharinning taslim bo'lishi Stalin uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mamlakatda nihoyatda markazlashgan davlat vujuga keldi. Partiyada endi har qanday siyosiy fikr bo'g'ilgan, bahslarga, dohiyning qarorlarini muhokama qilishga yo'l qo'yilmas, uning daholigi, uzoqni ko'ra olishiga shubha qilish mumkin emas edi. Partiya yig'ilishlari Stalinning xalq va jahon proletoriyati oldidagi xizmatlarini ko'kka ko'tarib maqtashdan iborat bo'lib qoldi. Partiyaning o'zi esa unga madhiyalar kuylovchi yakdil va jo'rovoz xorga aylandi .

Mamlakatda o'zgacha fikrlovchilar va hukumat olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarni bostirish maqsadida "Davlat ahamiyatiga molik jinoyatlar to'g'risida" gi qonun e'lon qilinib, u terrorni qonuniylashtirdi va huquqiy jihatdan asosladi. I.V.Stalin o'z qonuniga ega bo'ldi. Shu vaqtdan e'tiboran ishdagi har qanday kamchilik, Stalin buyruq va ko'rsatmalaridan har qanday chekinish davlat jinoyati xususiyatiga ega bo'ldi. 1936-1938-

¹ Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. -T.: Ma'naviyat, 2004. -B. 52.

² Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: Ma'naviyat, 2004. -B. 60.

yillarda bolsheviklar partiyasi sobiq rahbarlari ustidan sud jarayoni bo‘lib o‘tdi. N.I.Buxarin, L.B.Kamenev, A.I.Rikov va boshqalar o‘lim jazosiga hukm qilindi. Shundan so‘ng Stalin yakka diktatorga aylandi. Ommaviy axborot vositalari uning qo‘lida Stalin shaxsiga sig‘inishni, tuzumning amaldagi va ehtimoliy dushmanlarini ma’naviy va ruhiy terror qilishni targ‘ib qiluvchi vositaga aylanib qoldi. Partiyaning oliy bosh idorasi hisoblangan sezdlar (1939-1952 yillarda) biron marta ham chaqirilmadi. Stalin hokimiyatni hech kim bilan bo‘lishishni istamadi. Ittifoq tarkibidagi xalqlar tili, dini, madaniyati, alifbosidan judo bo‘ldi. Ateizm (Xudosizlik) majburlab singdirildi. E’tiqotsiz qolgan fuqorolar ongida Stalin shaxsi Xudo kabi ilohiylashdi. Natijada loqayd, e’tiqodsiz, boqimanda avlod yetishib chiqdi. O‘zibo‘larchilik kayfiyati paydo bo‘ldi. “Sen o‘ylama, sen uchun partiya g‘amxorlik qiladi, o‘ylaydi“ shiori o‘z salbiy oqibatini keltirib chiqardi. Qatag‘on mashinasi faol harakatda bo‘lgan yillarda fuqarolar “xalq dushmanlari” dushmanligiga shubha qilmadilar, tamoshabin bo‘lib turdi va hatto bu mashina murvatini yurgizganlar ham xalq orasidan keragicha topildi.

Stalin shaxsiga sig‘inish tufayli ro‘y bergan Qatag‘onlik siyosati sobiq mamlakat miqiyosida ellik millionga yaqin kishini o‘z domiga tortdi. “Moskovskiya novosti” gazetasining 1988- yil yigirma yettinchi-noyabr sonidagi Roy Medvedev “Skolko jertv v godu kul’ta lichosti Stalina” maqolasida qatag‘on qilinganlar soni taqsimlanib quydagi tarzda berilgan:

1927-1928 yillar – o‘n minglab “Trotskiychilar”

1930-1933 yillar – o‘n milliondan ortiq “Quloqlar”

1929-1933 yillarda ocharchilik natijasida olti millon kishi

1937- yilgacha o‘n yeti, o‘n sakkiz million kishi

1937-1938 yillar - (buyuk terror yillari) yetti million kishi

1938-1940 yillar – Polyak oilalari, Boltiq bo‘yi aholisidan ikki million kishi

1942-1944 yillar – uch milliondan ortiq kishi – chechen, qrim tatar, grek, turk, kurd xalqlari ko‘chiriladi. Ularning birmilliondan ortig‘i ko‘chish jarayonida vafot etadi.

1945-1946 yillar besh million atrofida

1947-1953 yillar “Leningrad ishi”, “Vrachlar ishi”, “Kosmopolitlar ishi”, bo‘yicha (Sotsializmga qarshi tashviqot yuritishda ayblov bilan) – bir milliondan ortiq kishi.

Urush davrida Sobiq ittifoqning yigirma milliondan ortiq aholisi qirilib ketdi. Qatag‘onlik siyosati esa ellik millionga yaqin kishini o‘z domiga tortdi. Sovet tarixchi olimlari esa bu xunrezliklarda Stalinning ishtiroki yo‘q, u bu jarayon mohiyati haqida umuman bilmagan, deya uzoq vaqt uqtirib keldilar.

O‘tgan asr (XX asr) ning 20-yillar oxirlarida Stalin tomonidan ilgari surilgan “Sotsializm mustahkamlanib borgani sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi” degan g‘oya g‘ayriqonuniy xatti-harakatning avj olishiga olib keldi. Stalin va uning atrofida gilar mamlakat va partiya hayotiga oid har bir masalada o‘z irodasi, hukmini boshqalarga majbur etib, har qanday muholifatchi qarashlarini, ularning tashuvchilarini mahv etib bordilar. Mamlakatda totalitar tuzum qaror topishi Ittifoq tarkibidagi respublikalar hayotiga ham daxl qilib, ularning butun inon – ixtiyorini markazga bog‘lab qo‘ydi. Sobiq O‘zbekiston SSR hayoti solnomasi misolida ham buning yorqin tarixiy dalolatini ko‘rish mumkin .

“Bosmachilik” harakatiga qarshi kurash buning debochasi bo‘lgan bo‘lsa, “o‘n sakkizlar guruhi”, “Inog‘omovchilik”, “Qosimovchilik” degan siyosiy ishlar harakatning navbatdagi qirg‘ini sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Quloqlashtirish rejimi va undan so‘ngi “Buyuk terror” yillari mamlakatimiz tarixiga eng fojiali yillar bo‘lib kirdi. 1937-1938 yillarda go‘yo O‘zbekistonda bir qator aksil – inqilobiy tashkilotlar borligi to‘qib chiqarildi. Natijada Respublika rahbarlari Akmal Ikramov va Fayzulla Xo‘jayevlardan

boshlangan qirg'in partiya, sovet, xo'jalik rahbarlari va harbiylarni o'z domiga tortdi. Mamlakatning eng sara o'g'lonlari, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Ubaydulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosirlarni mahv etdi. Qatag'on davlat eng yuqori lavozimidan to dehqonlargacha borib yetdi. Ho'l - u – quruq barobar yondi. Jamiyatda hech qanday maqomga ega bo'lmagan oddiy fuqarolar ham "xalq dushmani" sanalib qamaldi, otib yuborildi.

Shaxsga sig'inish yillarida shaxsan Stalinning ko'rsatmasi asosida jazolar qattiqashtirildi va jinoiy sud ishida shaxs huquqi kafolati yo'q qilindi. Bu o'z navbatida o'zboshimchalikka va qonunsizlikka yo'l ochib berdi. Aksariyat hollarda mahbuslar avval o'ldirilib, so'ng sud qilindi. Minglab kishilar sobiq ittifoqning uzoq o'lkalariga surgun qilindi. Ular mehnatidan qullarcha foydalanildi. Jazo muddatini o'tab bo'lgan mahbuslar uylariga qaytib kelisholmasdi. Ittifoq korchalonlari uchun odam qadri hech narsa emasdi. Mahbuslarga yangi ayblar qo'yib ularni yana surgun qilish ular uchun xamirdan qil sug'urganday ish edi. O'sha davr mamlakat bosh prokurori Vishinskiy, NKVD, OGPU, ichki ishlar komissarligi rahbarlari Yagoda, Yejov, Beriyalar qattol Stalin yaratgan qatl apparatini yurgizishga butun kuch-qudratini safarbar qilgan holda yaqindan yordam berdilar.

Urush tugagach oradan ko'p o'tmay sobiq ittifoqda yana bir yalpi qirg'in bo'lib o'tdi. O'tgan asr (XX asr)ning o'ttizinchi – yillaridagi qatag'on asosan partiya, sovet, xo'jalik va harbiy kadrlarga qarshi qaratilgan bo'lsa, qirqinchi – yillar oxiri elliginchi – yillar boshlaridagi qatag'onlar asosan madaniyat va fan arboblari talluqli bo'ldi. Respublikaning partiya organlari Markazning yo'l – yo'riqlariga tayanib, dunyoqarashi va ijodi partiya mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan ijod ahli va ziyolilar vakillariga hujum qila boshladilar. Ularning asarlarida go'yo millatchilik g'oyalari "mavjudligi" ayblash uchun bahona bo'ldi. O'z ijodida o'rta asrlar tarixini va oktabr to'ntarishidan

oldingi tarixini yoritib bergan yozuvchi va shoirlar o'tmishni ideallashtirishda aylanib, ularga millatchi degan yorliq yopishtirildi. Yozuvchi va shoirlardan Said Ahmad, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoilov, Maqsud Shayxzoda, Shukurullo, Shuhrat, Hamid Sulaymon va boshqa ziyolilar aynan 1951- yil "Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyatida jiddiy ayblanib qamoqqa olindilar, so'ng esa yigirma besh yil muddatga ozodlikdan mahrum etildilar".

Qatag'on qilingan san'at, madaniyat arboblari va oddiy fuqarolar totalitar tartibot davrida avjga chiqqan o'zboshimchalik, qonunbuzarlik va bedodlik dastidan qurbon bo'ldilar. Lekin adolat garchi kech bo'lsada tiklandi. Sovet davrida va urushdan keyingi yillarda o'zbek xalqi boshiga tushgan kulfatlar Stalin nomi bilan bog'liq. O'tgan asrning (XX asr) o'ttizinchi-yillarda qaror topgan shaxsga sig'inish bir kishining rolini ko'klarga ko'tarish bilan birga, partiya va hokimiyatga sig'inish, totalitar tartibni keltirib chiqardi. Shaxsga sig'inish sharoitida hokimiyat oliy darajadagi qadriyatga aylandi, uni boshqarayotgan shaxs ilohiylashtirdi.

Stalin vafotidan so'ng vaziyat birmuncha yumshadi. Ittifoqning yangi rahnamosi N.S.Xrushchev tashabbusi bilan shaxsga sig'inish illatlari va oqibatlari fosh etila boshlandi. Millat qator ziyolilari, begunoh fuqarolari oqlandi, ularning pok nomlari tiklandi hamda asarlari xalqqa qaytariladi. Lekin bu jarayon sovet davrida ziddiyatli kechib, u oxiriga yetkazilmadi.

Realistik ijod tabiati shundayki, san'atkor voqyelikni oddiygina tasvirlab yoki u haqda mutlaq betaraf hikoya qilib qololmaydi. Zero, realist san'atkor o'zi tasvirlayotgan voqyelikni bilish, unga o'z munosabatini bildirishni ijodning birlamchi maqsadi deb biladi. Realistik adabiyotning yetakchi janri bo'lmish romanda lirik ibtidoning mavjudligi, avvalo, shu narsa bilan izohlanishi mumkin. O'z vaqtida V.G.Belinskiy bu haqda: "Nam malo naslajdatsya – no' xotim znat: bez znaniya dlya nas net naslajdeniya",¹ – deb

¹ Белинский В.Г. Полн.собр.соч.- М.,1955.- т.6.- С.272

yozgan edi. Tanqidchi bu gapi ijod ahliga ham, o'quvchilarga ham birdek taalluqli. Yaxshi kitobxon romanda tasvirlangan voqealar yoki to'qnashuvlar shiddatidangina emas, zo'riqib ishlayotgan tafakkur ojiz qolgan choqlardagi to'lg'onishlariyu inkishof onlaridagi qudratidan-da estetik zavq ola biladi.

Cho'lpon "Kecha"da zamonaviy roman janri beruvchi noyob imkoniyatlardan mohirona foydalanadi. Epik, dramatik va lirik unsurlar uyg'unligi romanda bilish jarayoni bevosita tasvir jarayonida amalga oshishini taqozo qiladi. Buning muhim estetik samarasi shundaki, yozuvchi tayyor bilimlarni bayon qilish qusuri–didaktimizdan qutuladi, o'quvchiga sezilar-sezilmas ishoralar beradi-da, uni o'zi bilan birga o'ylashga majbur qiladi. Bu narsa, xususan, aniq sahna-ko'rinishlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida voqelik silsilasida 80- yillarga kelib "o'zbek ishi, paxta ishi"ga oid qarashlar, voqealar ijtimoiy muhitga hukmron bo'lib, "adolat o'rnatish" uchun qadam ranjida qilgan shaxslarni ma'naviy qiyofasi ochib tashlangan. Xalqimiz urf-odatlarini, vatan va millat g'ururini himoya qilgan rahbarlar ayanchli qismati ham ifodasini topgan. "Asarda, - yozadi S.Mirzayev, 80-yillar ikkinchi yarmida Moskvadan "adolat o'rnatamiz" deya O'zbekistonga kelgan desantchilar zulmidan azob chekkan sof vijdonli, halol o'zbek dehqonlari obrazi yaratilganligini" yozadi:

Respublika gazetasida g'alati sarlavhaga ko'zim tushib qoldi. "O'zbek ishi"co'zbeklarning ishi?". Shosha-pisha o'qib chiqdim. Maqola shapaloqdekkina edi. Ammo o'qishim bilan vujudimda olov yonib ketgandek bo'ldi. Maqolada "o'zbek ishi" xalqqa qarshi kampaniyaga aylanib ketgani, minglab odamlar qamalgani, ho'lu-quruq baravar yonayotgani, gunohkorlar qatori begunohlar ham aziyat chekayotgani, bu masalada redaksiyaga minglab xatlar kelayotgani bayon qilingan edi. Hayajondan qo'lim titrab, qayta o'qib chiqdim. Xayriyat! Rost gapni aytadiganlar ham bor ekan-ku!

Maqola ostiga “Mauzer G‘aniyev, xatlar va shikoyatlar bo‘limi” deb yozilgan edi. Mauzer! Esda qoladigan ism! Qarasam, gazeta ikki kun oldin chiqqan¹.

To‘g‘ri, bu o‘rinda jasur, irodasi bukulmas, mehnatkash inson bo‘lgan Shomansur Shomatov obrazi o‘sha ijtimoiy muhit qurboni sifatida namoyon bo‘lgan! “Otang Shomatov Mansur pripiska qilgani, katta miqdorda pora olib, pora bergani uchun qamoqqa olindi... - Sizlar adashayapsiz, mening otam unaqa odammas, bir umr halol ishlagan”. Bu o‘rinda otasining begunohligini isbotlash uchun tinimsiz yugurgan, ammo tergovchi Shevelev, “o‘zbekning boshiga qiron solish uchun kelgan general Amebartsumyan kabi shaxslarning maqsadi, ma’naviy qiyofasi, vahshiylik tismoli ekanligini voqealar zahirida Ilhom Shammatov bilan ular o‘rtasidagi suhbatlarda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi.

Asarda ijtimoiy muhit ta’sirida xarakteri shakllangan Soat G‘aniyev obrazi ham juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo‘yin egmaslik, cho‘rt kesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko‘ramiz: “- Ha-a, komissar! Qani, bir g‘ayrat qil-chi, ko‘ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo‘larkan!... Soat tag‘in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo‘llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi... o‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... - Eshitib qo‘yinglar! – dedi Soat alam aralash g‘azab bilan. – Men komissar bo‘laman! Albatta bo‘laman! Hammangni otaman!” (O‘sha asar, 34-36 betlar). Bu satrlarda komissar bo‘lish orzusida yurgan, bolalikning beg‘ubor damlarini o‘z boshidan o‘tkazyotgan Soat G‘aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma’noda tasvirlangan. “O‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini”, - anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Natijada, o‘z farzandi ham

¹ Hoshimov O‘. Hadikli tushlar. –T.: Adabiyot va san’at, 2002. –B. 163.

unga qarshi chiqqanda azoblar iskanjasida qoladi: “Qarang, bu olifta intelligentni! O‘z otangni tergashni kim qo‘yibdi senga! Zamon qanaqa bo‘lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g‘alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamiyodga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor!”, - deya o‘zini oqlashga harakat qiladi. Bu obraz haqida adabiyotshunos U.Normatov shunday yozadi: “Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar – mustabid tuzumning hukmron mafkuraning qilich va qalqoni, tuzum yetishtirgan “siyosiy hushyorlik” yozuvlik, shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafosat, poklik ramzi” sifatida o‘quvchida iliq taassurot uyg‘otadi:

“- Qo‘shib yozish hamma joyda bo‘lgan, - dedi anchayin vazmin ohangda – Aybni esa kelib-kelib o‘zbekka yopishtirishdi. Sababi shuki, armaniga osilsa, o‘sha kuni armani ko‘chaga shior ko‘tarib chiqadi. “Arman xalqidan qo‘lingni tort!” deydi. Gurjiga tashlansa, gurji ko‘chaga chiqadi. “Nega xalqni haqorat qilasan?” deydi. Sen bilan biz – o‘zbekmiz. Bittamizni bo‘g‘izlasa, ikkinchimiz me‘rayib turamiz. Navbat o‘zimizga yetgandagina qo‘yga o‘xshab ma‘raymiz”¹.

Shuni ta’kidlash joiz, sobiq Ittifoq tutumi boshidanoq soxta edi. Unga Respublikalar majburan birlashgan edilar. Sho‘rolar tuzumining qariyib yetmish yillik hukmronligi davrida to‘planib qolgan muammolar saksoninchi-yillarga kelib yuzaga chiqa boshladi. Endi ittifoqni kuch bilan boshqarish mumkin bo‘lmay qoldi. Mixayl Gorbochev hukumat tepasiga kelgach to‘planib qolgan muammolarni hal qilish uchun “Qayta qurish” siyosatini o‘tkaza boshladi. Stalin davridagi qatli omlar butun ittifoqni qamrab olgan bo‘lsa, qayta qurish davrida qatag‘on buluti faqat birgina millatni badnom etdi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan soxta uydirmalar o‘ylab chiqarildi. Maqsad ittifoqda avj olib ketgan boshboshdoqlik, qo‘shib

¹ O‘sha asar. –B. 166.

yozish, korrupsiya kabi muammolarni O‘zbekiston misolida bartaraf etishga kirishildi. Kommunistik partiya rahbarlari O‘zbekistonni badnom qilish barobarida, boshqa respublikalarni ham qo‘rqitib qo‘yishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. 1985-yil kommunistik partiyaning navbatdagi plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib chiqqan holda, sho‘ro jamiyatini yangilash zarurligi borasida muayyan ko‘rsatmalar beradi.

Natijada O‘zbekistonga “Kadrlar desanti” yuborildi. SSSR prokraturasi xodimlari, Gdlyan va Ivanov boshchiligida tergovchilar guruhi yeng shimirib ishga kirishdilar. Tergov guruhi tizimi o‘zbek xalqini ko‘zbo‘yamachilik, poraxo‘rlik, qo‘shib yozish, boqimandachilik va hokazolarda ayblab, firqa va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlargacha ta’qib ostiga oldilar:

“Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta – indin osmonga motom libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kadi. Sim-sim yomg‘ir yog‘adi: to‘rt kunlik umrida dunyoga sig‘magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig‘laydi”¹.

“Paxta ishi” natijasida yigirma besh mingga yaqin respublikamiz fuqarolari qiynoqlarga solindi, sudsiz tergovsiz qamaldi. Yillar davomida muttassil o‘tkazilib turgan qatag‘onlar, sobiq ittifoq va respublikamizda yuzaga kelgan tang vaziyat, milliy urf-odat va an‘analarning toptalishi, hattoki yaqin qarindoshi vafot etganda uni so‘ngi manzilga kuzatishga borolmaslik va boshqa holatlar kishilar ko‘zini ochdi. Xalq orasida keskin norozilik kayfiyati paydo bolib, o‘zining avj nuqtasiga ko‘tarila boshladi.

1989-yil Islom Karimovning O‘zbekiston kommunistik partiyasi tepasiga kelishi mavjud vaziyatni ancha yumshatdi. Kommunistik partiyaning yangi bosh kotibi ko‘rsatmasi bilan “paxta ishi” qaytadan ko‘rib chiqildi. Natijada “paxta ishi” bilan nohaq qamalgan respublikamiz fuqarolari oqlanib,

¹ O‘sha asar. –B. 182.

jo'shqin hayot qo'yniga qaytarildi. "Xalqlar turmasi" deb nom olgan Qizil imperiya qo'rquv iskanjasida karaxt holiga kelgandi. Xalqlar otasi ulug' dohiy Stalin e'tiqoddan mahrum etilgan kishilarning e'tiqodiga aylandi. O'tgan asr (XX asr) avvalidagi iqtisodiy bo'hronlar, ocharchiliklar, kommunistlarning "...dehqonning elkasida kommunizmga qadam qo'yamiz" (Trotskiy) shiori ishchilarni ruhlantirib, ertangi kunga umid uyg'otadi.

Bolsheviklar o'z g'oyalaririni singdirishda adabiyot va san'atdan mohirlik bilan foydalandi. Dastlab rus matbuoti va adabiyotida shunday asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar chaqiriq kabi yangradi. Pavlik Morozov obrazi o'ylab topildi. Pavlik Morozov ittifoq qahramoniga aylantirildi. U haqida matbuotda, radio va televideniyada, majlislarda ko'p va yana ko'p marta gapirildi. Pioneerlarga unga o'xshashga da'vat etildi. Pavlik Morozov haqida material yig'olmagan matbuotchilar qo'shib – chatib yozishga kirishdilar. Pavlik Morozov o'limidan so'ng yosh bolalarga ota – onasini o'ldirishini vazifa qilib qo'ydilar. Shundan so'ng, hamma joyda chaqimchilik odat tusiga aylandi. Yosh pionerlar shunday g'oyalar asosida tarbiya topdilar. Rus matbuotidan nusxa olgan holda ittifoqning boshqa respublikalarida ham ideal jamiyat, ideal pioner, ideal kommunist g'oyalarini singdirish avj oldirildi. Bu harakatlar siyosiy bo'hronlar (asr avvalida ittifoqda uch marta tuzum o'zgardi), ocharchilik va savodsizlik sharoitida kishilar ongini tez egalladi. Natijada kommunistik partiya yetakchilari ko'zlagan maqsadiga maksimal darajada erishdilar. Kommunizm qurish, "baxtlar vodiysi" haqidagi cho'pchaklar kishilar ongida haqiqatga aylandi. "Yerdagi jannat" va Stalin shaxsi kishilar idealiga aylandi. Hatto ikkinchi jahon urushi boshlanganda "sovet kishi" lari jang maydoniga ham "За Сталина" deb kirdilar .

Urushning SSSR g'alabasi bilan tugashi bu ishonchni yanada mustahkamladi. 1953-yil martda Stalinning vafot etishi butun ittifoq fuqarolarini larzaga soldi. Odamlar Stalinsiz yashashni tasavvur qilolmay

qoldilar. Yevropa vaqtli nashrlaridan biri Stalin o‘limi haqida “Buyuk qotil vafot etdi”, - deb yozadi. Millionlab kishilar “Buyuk qotil”ga aza tutishdi.

Shaxsga sig‘inishning fosh etilishi, O‘zbekiston Respublikasiga ayrim huquqlar berilganligi milliy ziyolilar, ilm-fan, madaniyat xodimlari, adabiyot, san’at, arboblarda umid uchqunlarini paydo qildi. Lekin Xrushchev shaxsiga sig‘inishning boshlanishi, Brejnev davridagi turg‘unlik odamlar e’tiqodiga ta’sir ko‘rsatdi, ammo tubdan o‘zgartirolmadi. Saksoninchi – yillarga kelib iqtisodiy ahvolning og‘irlashishi va’da qilingan jannatning xom hayol ekanligini oydinlashtira boshladi. Mamlakatdagi chuqur iqtisodiy, ma’naviy, madaniy va siyosiy tanazzul kishilar e’tiqodiga darz keltirdi. Loqayd, boqimanda, hech narsaga ishonmaydigan, kelajakka umid bilan qaramaydigan kishilar ommasini vujudga keltirdi. Ustiga ustak Afg‘on urushi va undan keyingi “paxta ishi” voqealari ahvolni yanada murakkablashtirdi. Endi fuqarolarni jtimoiy – siyosiy hayotning hech qanday voqealari qiziqitirmay qo‘ydi. Kishilar hech narsaga ishonmay qo‘ydi. Hosil bo‘lgan vaziyat kishilar ongida, san’at va adabiyotda bo‘shliqni yuzaga keltirdi .

1991- yil o‘ttiz birinchi – avgustda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilgan paytda, bu muhim hodisaning fuqorolar tomonidan turlicha qabul qilingani ham, qariyb bir yuz qirq yillik mustamlaka davrining kishilarni qanchalik karaxt holiga keltirganining tasdig‘i bo‘la oladi.

Albatta har bir iste’dod, ijodkor o‘ziga xoslikka ega. Matyoqub Qo‘shjonov “San’atkor va hayot” nomli tadqiqotida “shunday asarlar borki, hayotiy voqeligi, g‘oyaviy mohiyati jihatidan bir – biriga o‘xshash, ammo shu voqealar talqinida va g‘oyaviy maqsadlarni poetik tahlilida har bir adib o‘z betakror estetik yo‘lidan boradi”. – deya yozadi. Shuhrat va O‘.Hoshimov ham o‘ziga xos uslubni namoyish etadi. “Oltin zanglamas”da yaratilgan har bir obraz ijtimoiy – falsafiy salmog‘i og‘ir. Tavsif, tafsilotlar vaziyatdan kelib chiqqan holda yaratiladi. Shuning uchun ham ularga lo‘ndalik va qisqalik

xos. Xarakter takomilida faqat vaziyat taqozo qilayotgan xususiyatlarigagina e'tibor beriladi. O'.Hoshimov uslubida esa mayin lirizm ustuvorlashadi. Yozuvchi "Tushda kechugan umrlar" dagi har bir vaziyatni, tasvirni maromiga etkazib, sirli – jozib tarzda tasvirlaydi. Tasvir ruhiyati rang-barangligi har bir muammo ziddiyatlarini yaxlit gavdalantirish imkonini beradi:

"Akam allaqancha gazeta yig'ib qo'ygan ekan. O'qib, hayron bo'ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan rejim yemirilgani, to'la demokratiya ro'yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida «o'zbek ishi» bo'yicha qamoqqa olingan obkomlar, raykomlar, raislar la'natlanadi. Birida odamlarni e'tiqodi uchun tazyiq ostiga olinganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo'l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib, Qur'on tilovat qilgan kommunist felyeton qilinadi... Qiziq"¹.

Kundaliklardan olingan lavhada Rustam afg'on fojialari iztirobidan tashqari harbiydan keyingi hayoti ham ziddiyatlarga boy bo'lgan davr hisoblanadi. Uning tasavvurida hayot o'zgargan, jamiyat adolat sari qadam tashlashi zarurdek tuyulsa-da, ammo bu tushunchalar faqat uning tasavvuri mahsuli edi, xolos. Chunki otasi xuddi o'sha tuzum qurboniga aylangan, uni adolatsizlik o'z girdobiga tortganligini u to'liq anglab yetmas edi. Otasi Shomansur Shomatov hayoti davomida haq va haqsizlikka qarshi kurashgan shaxs bo'lsa-da, ammo amaldagi ijtimoiy muhit qurboniga aylangan edi. U uzoq yillar adolatli tarzda kolxozga raislik qilgan bo'lsa-da, ammo o'sha davr ziddiyatlari, ya'ni "paxta ishi" masalasida qamoqqa olinganligini Rustam uning haqligini bilib ozod etish uchun harakat qilib, ijobiy natijaga erisha olmaydi. Xuddi mana shu holat uni iztirobga soladi. Shuningdek, romanda Qurbonoy xola obrazi ham asar badiiy to'qimasida yetakchi o'rin tutadi. U oddiygina farrosh bo'lsa-da, o'z oilasini halol mehnat bilan topgan mablag'i

¹ O'sha asar. –B. 174.

hisobiga tebratar, ba'zan esa mashaqqatli hayot qurboniga aylanganligini o'zi ham sezardi. Ismi jismiga monand obrazda o'zbek ayoliga xos xususiyatlar mujassam.

Ijodda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, yozuvchi hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv va estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddati uyg'unligini taminlash barobarida xarakter to'laqlonligini ham mantiqan dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to'qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahniga chiqadi. Tuyg'u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teran falsafagina bu ikki nuqtani jipslashtiradi. Zero, adabiy tafakkur tizimi yaxlitlik asosiga quriladi, poetik unsurlar ziddiyati-yu uyg'unligi yetakchi badiiy xususiyatga evriladi. Binobarin, janr taqozosi va adabiy qonuniyatlar joriyligi taraqqiy topayotgan fikrni izohlaydi:

“Xosiyatsiz tush ko'rdim. Otam hovlidagi so'rida yotganmish. Tagida ko'rpacha ham yo'q, quruq taxta ustida yotibdi (qamoqxonalardagi kabi-M.Y). Dada ko'rpacha solib beray desam, indamaydi. Nuqul yig'laydi. Dadamning yig'lashini hech ko'rgan emasdim. Qo'rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g'oyib bo'lib qopti”¹.

Roman tabiatida san'atkor shaxsiyati butunligiga doir xususiyatlar jamlanadi. Yaxlit tizim sifatida voqelik shakli va mazmunini bir-biriga ulaydigan badiiy tushunchada daraja ko'rsatkichi qabarib ko'rinadi. Aynan, tasvir va ifodani bir muayyan estetik markazga yig'ish adabiy mahoratga chambarchas bog'liq. Aslida, hayotiy material ko'p qirrali va mavhum, ijodiy tanlov pozitivligini esa tahlil aniqligi belgilaydi. Mantiq hamda munosabat zichligi badiiy meyor saqlanishi kafolati, unda real voqelik dalolati qayta ishlanib, poetik tadqiqot ustuvorlashadi:

¹ O'sha asar. –B. 285.

“Ilang-bilang yo‘l emish. Bir tomon qumli cho‘l. Bir tomon- “zelyonka”. “Zelyonka”dan o‘q otilayotganmish. Qiziq, avtomat tovushi kelmasmish-da, yonimdan hushtak chalib o‘tayotgan o‘qlar ovozi aniq eshitarmishman. “Zelyonka”ga otay desam, avtomatim yo‘q. Qochay desam, pana joy ko‘rinmaydi. Bir bo‘yimcha o‘zimni yerga otibman... Bir mahal katta yo‘ldan BMP yelib keldi. Qarasam, yonimdan shitob bilan o‘tib ketyapti. “Olib ketinglar, meni olib ketinglar!” dedim sapchib turib. BMP to‘xtamadi. “Obket! –dedim baqirib.-Obket meni!” BMP to‘xtadi. Yetib borsam, Xayriddin qo‘l cho‘zib turibdi. “Chiqing jo‘ra, chiqing tezroq!” dedi. BMP ga tortib chiqardi”².

Poetik ifodani ijodiy mustaqillashtirishga yo‘g‘rilgan O‘.Hoshimov romanida introspektsiya usuli (nuqtai nazar notekisligi, rivoya mavqei o‘zgaruvchanligi)dan samarali foydalanadi. Mavjud adabiy talqinda intizom yaxlitligi ko‘zga tashlansa-da, tafsilotlararo keskin tafovutlar badiiy mohiyat ko‘pqatlamligini belgilaydi. Muallif muhokamasida epik “men”i tez-tez qahramon “men”i bilan to‘qnashadi. Ularni bir-biriga nisbatan daxlsiz rivojlantira olgan adib mo‘jaz yaxlitlik yaratadi. Nuqtai nazarlararo ziddiyat voqelik shiddatini oshirishdan qahramon xarakterini baholashga ko‘chadi. Sintaktik tanlov usuli badiiy chambarchaslikaro estetik quvvatni kuchaytiradi hamda o‘zgaruvchan realistik tasvirni rasmiylashtiradi.

1.2. Badiiy tafakkur qamrovida mutanosiblik va o‘ziga xoslik

Men o‘tib ketaman, sen keyin qolib,
Haqqimda rost so‘zni aytib yur she’rim¹
(Shuhrat)

² O‘sha asar. –B. 296.

¹ Kattabekov A., Rahmonov V. O‘zbek adabiyoti darslik majmua. O‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, XXXX B. 157-bet.

Stalin vafotidan so‘ng o‘tkazilgan XX sezdda shaxsga sig‘inish illatlari fosh etilgach, kishilar erkin nafas ola boshladilar. Shaxsga sig‘inish davri oqibatlarini fosh etilib, qatag‘on qurbonlari va mahbuslar oqlana boshladi. Bu voqealar kommunistik partiyaning yangi bosh kotibi Nikolay Xrushchev rahnamoligida boshlandi. Vaziyat birmuncha yumshashdi. Qatog‘on qilingan ziyolilarning nomlari oqlanib, asarlari xalqqa taqdim etila boshlandi. Shunga qaramay “Qo‘qinch saltanatida” da ahvol ancha og‘ir edi. Stalin shaxsiga sig‘inish tugatilib, endi Xrushchev shaxsiga sig‘inish boshlangan edi. O‘tgan asr avvalida (XX asr) adabiyotda yozuvchilarning ijod yo‘lini belgilab bergan sotsialistik realism metodi o‘zining ikkinchi davrini boshladi. Badiiy asarlar endi qotib qolgan sotsialistik realizm metodida emas, badiiylik tamoyillariga asoslanib yozila boshlandi (albatta, sotsialistik realizmdan chekinmagan holda). Badiiy asarlardagi voqealilar mavzu ko‘lami ham kengaya bordi.

1962-yil Moskva vaqtli nashrlaridan biri “Новый мир” jurnalida Aleksandr Soljenetsinning “Ivan Deneisovichning bir kuni” qissasidan boblar bosilib chiqara boshladi. Asar Stalin qatli omlari haqida hikoya qilardi. Bu asar sobiq ittifoqda maskur tarixiy jarayonni yoritgan birinchi asar bo‘ldi. Asar muallifi Aleksandr Soljenetsin urush qatnashchisi va qolaversa qatag‘on jabirdidalaridan biri edi. U keyinchalik mavzuni davom ettirib, “Gulag arxipelagi” asarini yozadi. Muallif Rossiyada uzoq qololmadi. U chet elga badarg‘a qilinadi. Haqiqatparast ijoddor Ittifoq tanazzulga yuz tutgan 1990-yildagina yana o‘z Vatani - Rossiyaga qaytib kelishga muvaffaq bo‘ladi.

1965-yil “Sharq yulduzi” jurnalida Shuhratning “Oltin zanglamas” romanidan parchalar e‘lon qilina boshlandi. Jurnalning ikki sonida chiqib ya‘na to‘xtab qoldi. Chunki asarda Stalin shaxsiga sig‘inish yillari tarixiy jarayonlari yaratilganligi kimgadir yoqmay qolgan edi. Ko‘pgina qiyinchiliklardan so‘ng u jurnalning keyingi sonlarida chop etila boshlandi. Asar kitob holida chop qilingach katta shov-shuvga sabab bo‘lgan edi.

Negaki asarda o'sha paytda (va hatto hozir ham) odamlar pana-panada shivirlashib so'zlashadigan, ba'zilar shivirlab so'zlashga ham jur'at etmaydigan mavzu qarag'on mavzusi yoritilgan asar yaratgan edi.

Roman yaratilgandan keyingi aks-sadoni adabiyotshunos olim va munaqqid Matyoqub Qo'shjonov shunday bayon etadi. "Romon katta shov-shuvga sabab bo'ldi". "Nahotki bu sirli muammoni ochiqdan- ochiq bayon qilish mumkin bo'lsa" deb o'yladilar ba'zilar. Shuhratning qismati endi qay yo'sinda borar ekan, deyuvchilar ham bo'ldi. Bugun shu narsa aniq bo'lyapdiki, "Oltin zanglamas" romanining yaratilishi faqat Shuhratning emas, balki kitobxon, adabiyot qolaversa, umumijodkorlar yutug'i ekan"¹.

"Oltin zanglamas" o'zbek adabiyotida qatag'on yillari haqidagi birinchi roman va so'ngi yillargacha yagona roman bo'lib turdi. Kim bilsin, ijtimoiy o'zgarishlar yuz bermaganda ya'na qancha vaqt yagona bo'lib turardi. Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev asarga baho bera turib uni "Ikki yil va bir umr yozilgan asar"² deb ulug'laydi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, qatag'on mavzusi yoritigan asarlar safi kengaya boshladi. Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" (1990), "Tirik ruhlar" (1998), Odil Yoqubovning "Adolat manzili", "Muzqaymoq", O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" (1992), "Qatag'on" (1996), Uchqun Nazarovning "Chayon yili" (2001), Ahmad Azamning "Qatag'on" (1994), Said Ahmadning "Sarob"(1998), "Borsa kelmas darvozasi" (2002), "Jimjitlik", Nabijon Boqiyning "Qatlnoma" (1992), Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" (2005), "Adibning umri" (2005), "Abdulla Qahhaor" (2007), Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" (1995), Abdulla Oripovning "Olimonga", Muhammad Yusufning "Qora quyosh", "Yurim ado bo'lmas

¹ Normatov U. Ijod sehri. T.: Sharq, 2007. -B.188.

² Rizayev Sh. E'tiqod mash'ali // Sharq yulduzi, 2008. 14-son. -B. 48.

armonlaring bor” singari asarlari chop etila boshlandi. Bular adabiyotimizning yangi davri boshlanganidan darak berar edi.

Shuhratning “Oltin zanglamas” romanini o‘rganishda adibning hayoti va ijodi bilan ham yaxshi tanish bo‘lmoq maqsadga muvofiqdir. Sababi, ”Oltin zanglamas” avtobeografik harakterdagi asar bo‘lib, asarning yozilish sabablari yozuvchining biografiyasida aks etadi.

Shuhrat (G‘ulomjon Alimov) 1918- yilning o‘n to‘qqizinchi - aprelida Toshkent shahrining Xastimom (Hazrat Imom) mahallasida tavallud topgan. Toshkentning Xastimom mahallasidan sal naridagi yangi maktabda tahsil oladi. Abdurahmon va Abdumajidxon ismli domlalardan boshlang‘ich ta’limni olgach, keyinroq transport texnikumida o‘qishni davom ettiradi. Xuddi shu yerda uning ko‘ngliga she’r uchquni qo‘nadi. Adabiyot muallimi shoir Yunus Latifning darslari uning qalbida adabiyotga bo‘lgan uchqunni tarbiyalaydi. Keyinchalik texnikum devoriy gazetasida uning ilk she’ri bosilib chiqadi. Bir yildan so‘ng uning “Lenin uchquni” gazetasida ilk she’ri nashr etildi. Shundan so‘ng u she’r havasi ila injenerlikdan voz kechadi va O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Konsultatsiya buyrosiga kotib bo‘lib ishga kiradi. Bu paytlarda yozuvchilar uyushmasi Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir va Mirtemir kabi adabiyot darg‘alari kelib turadigan fayzli masakan edi. Shularning suhbatlaridan, yig‘in, muhokamadan va munozaralardan bahra olib, uning adabiyot haqidagi tushunchalari shakllana boshladi. Uyushma tashkil etgan yosh yozuvchilarning olti oylik kurslarida o‘qidi. Shu yillari u o‘ziga Shuhrat deya tahalllus tanlaydi. Mashqlari endilikda matbuot sahifalarida ko‘rina boshladi. Ustozlarining nazariga tushdi. 1936- yilda yozuvchilar uyushmasidan ketib Toshkent davlat pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Bu yerda 1940- yilgacha o‘qiydi. Balki tasodifdir, balki, bilim-tajriba, zarurati, balki, boshqa andishadadir harqalay u yozuvchilar

uyushmasi fayzli maskandan ko‘ra, qatag‘onga fatvo beradigan ma‘muriy idoraga aylanishi arafasida ketdi. Shuhrat 1940- yilning kuzida armiya safiga chaqiriladi. Bu orada ikkinchi jahon urushi boshlanib ketadi. Shu ko‘yi hizmat oxirlaganda ulug‘ Vatan urushining olovli jangohlariga kirib ketdi. 1943- yili og‘ir jarohatlanib uyiga qaytadi .

Veteran shoir urushning qalbida kechgan istiroblarini qog‘ozga tushirib “Shinelli yillar daftari” nomi bilan turkum she‘rlarini yaratadi. Shoirning urushda ko‘rgan kechirganlari she‘rga sig‘masdi, uning o‘zi yozganidek,

Jangovar yillarning ertagi uzun,

Har o‘qning uchishi o‘zi bir doston.

Shu alpozda Shuhrat nasriy tajribalarsiz roman janriga qo‘l urdi. ”Shinelli yillar” romani ustida ish boshladi, lekin oxiriga yetkizolmadi. Elliginchi-yillar Sovet ittifoqi tarixiga Stalizm davri qatag‘onlarining navbatdagi to‘lqini bo‘lib kirdi. Avvalgi qatag‘onlarda quloqlar, harbiylar, partiya va sovet organlarining a‘zolari qatli om qilingan bo‘lsa, bu galgi qatag‘on minglab ziyolilarning yostig‘ini quritdi, uzoq o‘lkalarga surgun qildi. Shuhrat ham kutilmaganda, o‘tmishni ideallashtiruvchi, sho‘rolarga qarshi, faoliyat yurituvchi guruhning a‘zosi degan siyosiy ayb bilan yigirma besh yilga kesilib, shimoliy Qozog‘istonga surgun qilinadi.

Xalqlar otasining o‘limi va jamiyatda ro‘y bergan burilishlar oqibatida oqlanib, yana uyiga, ijod qo‘yniga qaytadi. 1947-yil boshlanib yarimlab qolgan “Shinelli yillar” romanni yozib tugatadi .

1965- yilda uning mashhur “Oltin zanglamas” romani dunyo yuzini ko‘rdi. Asar yozilishi bilan katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Asarning bir qismi “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilib, so‘ng to‘xtab qoladi. Ko‘pgina qiyinchiliklardan so‘ng uning davomi jurnalning keyingi sonlarida chop etiladi. Bu paytda Stalin o‘lgan, jamiyatda o‘zgarishlar yuz berayotgan davr edi. Lekin shunga qaramay, bu davr Stalinizm davrining mantiqiy davomi

edi. Asarning kitob holida bosilib chiqishi ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Roman keng kitobxonlar mehrini qozondi, lekin adabiy jamoatchilik tomonidan sovuq qarshi olindi. Shuhrat esa qadr topmaydi. Ko'rinib turibdiki, shaxsga sig'inish yillarining nafasi ketmagan bir davrda bunday asar yozish yozuvchidan katta ijodiy jasorat talab etiladi. Buning ustiga asar avtobiografik harakterdagi roman, qolaversa, asar mullifi oqlanib kelganiga endigina o'n yil bo'lgan, qalbidan qamoqning ruhiy qiynog'i, badanidan shimol sovug'ining nafasi ketib ulgurmagan bir paytda, yozuvchidan katta matonat va ruhiy kuchni talab etardi. Vaholanki Shukrullo Gulag orollarida ko'rgan kechirganlarini o'ttiz besh yil, Said Ahmad esa qirq besh yil o'tgandan keyingina qalamga olishga jur'at etdi. Said Ahmad o'z xotiralarini yoza turib, bu jarayonni "insultdan oldingi holat"¹ deb baholaydi. Qirq besh yillik hotira iztirobi, ya'na bu hotirani yaratishda ijtimoiy sharoyit yetarli darajaligida ruhiy azob shu darajada bo'lsa, Shuhrat iztirobi naqadar kuchliligini tasavvur qilish mumkin

Asar muhokamasida Abdulla Qahhor "Men anchadan beri o'zbek adabiyotida ayni shunday asar paydo bo'lishini, uni esa kul't davri voqealari atrofida emas, ichida yurgan qalamkashlar yozib berishini kutardim". Kul't davrida avj olgan qo'rquv tuyg'usi bunga yo'l bermay keldi. Shuhrat qismatdoshlari ichida birinchilardan bo'lib, ana shu qo'rquvni yengib o'ta oldi. Muhokamaga qo'yilgan "Oltin zanglamas" romani bilan u katta ijodiy jasorat ko'rsatdi"² – deb takidlaydi .

Shuhratning 1968- yil "Jannat qidirganlar" romani chop etidi. Yozuvchi bu romani orqali o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib chet eldagi o'zbeklar hayotini aks ettirdi. Sovet davrida chet elga ketib qolgan har qanday odam sotqin, hiyonatchi sifatida baholanardi. Shuhrat "Jannat qidirganlar"ni yaratishda bu yo'ldan bormadi u chet ellik

¹ Ahmad S. Qorako'z majnun. –T.: O'zbekiston, 2013. -B. 3.

² Normatov U. Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007. -B. 200.

millatdoshlarimizning hayotiy va ishonarli timsolini yaratdi. Adib saksoninch-yillarning boshlaridaida tarixiy mavzuga qo‘l urib “Mashrab” romani ustida ish boshladi. Lekin o‘tmish yillarining azoblari, urush asoratlari o‘z ishini qildi. Adib asarni tugatolmasligini bilib, she’r bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shu tariqa, “Kechki nurlar”, “Hali tun uzoq”, “Yoshligimning davomi”, “Qalbim jilosi” kabi she’riy turkumlari dunyoga keldi. Adabiyotimizning nasr va nazm gulshanini birdek yashnatgan sevimli yozuvchi Shuhrat 1993- yil yigirmanchi-iyunda uzoq davom etgan og‘ir kasalikkdan so‘ng vafot etdi .

1934- yil tarixda misli ko‘rilmagan hodisa, sho‘ro yozuvchisi amal qilishi lozim bo‘lgan ijodiy metod, sotsialistik realizm metodi qoidalari kommunistik partiya rahbarlari ishtirokida ishlab chiqildi. Voqealikka faqat kommunistik mafkura asosida sinfiy - partiyaviy yondashish barcha qalam ahli uchun dastur-ul amal qilib belgilab qo‘yildi. Adabiyotda bir xildagi sayoz, o‘lik asarlar ko‘paydi, qanchadan-qancha asarlar yo‘q qilindi. Yozuvchilar partyaning qo‘g‘irchog‘iga aylandi. Lekin sotsiolistik realizm sharoitida ham nodir asarlar yaratildi.

Shunday asarlardan biri Shuhratning “Oltin zanglamas” romanidir. Shuhrat asarlari ham huddi shu metod asosida yaratilgan, shunga qaramay u sotsialistik realizm sharoitida ham o‘ziga yarasha yo‘l topa oldi. Ehtimol bu uning ko‘rgan-kechirganlari asosida asar yaratganida bo‘lsa ajabmas. “Oltin zanglamas” romani Shuhratning shoh asaridir. Roman chop etilishi bilan kitobxonlar orasida qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Shuhrat oltmishinchi-yillarda yozgan “Tajrimai hol” ida “Men bu hayotni yaxshi bilaman, ular men ko‘rgan, menga uchragan kishilar hayoti men bu hayot atrofida emas naq ichida bo‘lganman, bu mavzuda biron narsa yozmasam ko‘nglim joyiga tushmasdi, buni vijdonim taqazo etardi” deb yozadi.

Asarning asosiy voqealari bosh qahramon Sodiqlning shaharga ko'chib kelishi, ishga joylashish uchun shahar maorifi bo'limiga borishi va shu joyda Mirsalim bilan tanishishidan boshlanadi. Yozuvchi kitobxonni voqealar bilan tanishtira borar ekan inson tabiatining xilma-xil olami tasviri orqali asta sekinlik bilan asosiy masala sari yetaklaydi. Bu voqealar markazida Sodiql va Mirsalim minosabatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi romanida adolat uchun kurashuvchi e'tiqodi butun, ammo o'zi sodda ko'nglida kiri yo'q ishonuvchan Sodiqlni qatag'on siyosatining shavqat bilmas to'ri o'z domiga ilintirib asta-sekin chirmoviqdek o'rab olayotganini turli badiiy vositalar, davr uchun harakterli bo'lgan hayotiy lavha va detallar orqali hayotiy tasvirlaydi. Shunday detallardan biri ig'vo va chaqimdir. Ma'lumki ig'vo, tuxmat odamzod tabiatiga xos qusurlardan biri bo'lib, hasad, ko'rolmaslik, ichiqoralik oqibatida yuzaga keladigan va barcha davrlarda uchraydigan illatlardandir. Lekin siyosiy chaqiq va ig'vo faqat sho'ro davriga xos xususiyatdir. Asarda tasvirlangan turli-tuman gapgashtaklar va u yerda bo'ladigan suhbatlarning tegishli joylariga yetkazilishi kabi hayotiy lavhalar ham davr ruhini aks ettirishga xizmat qiladi.

Bu o'rinda yozuvchi Mirsalim obraziga alohida e'tibor qaratgani va barcha badiiy komponentlarini birlashtiruvchi vositaga aylantira olganini ta'kidlash zarur. Asarda Mirsalim Sodiqlning fojiyali qismati boshlanishida hal qiluvchi obraz sifatida harakterlidir. Mirsalim va uning gumashtalari tomonidan uyushtirilgan ig'vogarliklar Sodiqlning hayotini izdan chiqarib va uning nomi ro'yhatlardan o'chirila boshlandi. Asarda shunga oid bir voqea tasviri harakterlidir. Konferentsiyada ilgor maktablar nomi sanalganda Sodiql rahbarlik qiladigan maktab nomi tilga olinmaydi. Ushbu masala yuzasidan gazeta hodimining Sodiql bilan suhbatl ahamiyatga molikdir .

“- Ha, rosdan ham dedi- gazeta hodimi nimadir birdan esga tushganda bo‘ladigan shoshinqirash bilan, - mana dokladda ham sizning maktabingiz bilan nomingiz, nima uchundir qizil qalam bilan o‘chirilgan”.

Hodim gazetada beradigan hisobotda foydalanish uchun olingan maorif mudiri dokaladining o‘sha sahifasini ochib ko‘rsatdi. Chindan ham maktabi va nomi qizil qalm bilan o‘chirilgan, lekin o‘qish mumkin. ”kim o‘chirgan?, “nimaga o‘chirilgan?” degan savol Sodiqning hayoliga keldi va muhbirdan so‘radi.

- Kim o‘chirgan bo‘lishi mumkin?

- Kim dokladni qizil qalam bilan ko‘rib chiqqan bo‘lsa, o‘sha bo‘ladida dedi muhbir mujmalgina qilib”¹.

Ushbu lavhada qizil qalam bilan o‘chirilgan degan fikrning uch marta takrorlanishi muxbirning mujmal javoblarida shoro siyosatini fosh qiluvchi juda katta ramziy ma’no yashirgan. Sho‘ro hukumatining barcha belgilariga qizil rang ustuvorligini hisobga oladigan bo‘lsak, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikr ko‘lami kengayib boraveradi.

Adib o‘z qahramoniga Sodiq deb nom berishi bejizga bo‘lmasa kerak. Odatda Sodiq deb samimiy, vafodor kishilarga nisbatan aytiladi.

Sodiq bu – asr avvalida (XX asr) yerda jannat barpo etilishiga qattiq ishongan kommunistlar.

Sodiq bu – har qanday sharoitda ham o‘z maslagi, dini, e’tiqodi, g‘ururi, vijdoniga sodiq o‘zbek xalqi.

Sodiq bu – Shuhrat.

Asarda Sodiq obrazi chin kommunist, kommunistik partiyaga sodiq kishi tarzida tasvirlangan. U 1936- yil qabul qilingan SSSR konstitutsiyasini jahonda tengi yo‘q konstitutsiya deb biladi. Kommunistik partiya ko‘rsatmalariga og‘ishmay amal qiladi. Sodiq tarix fani o‘qituvchisi,

¹ Shuhrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq. 1999. –B. 112.

keyinchalik maktab direktori. Bir necha vaqt avval “bosmachilar” ga qarshi kurashda faol ishtirok etgan. “Kommunizmni oiliy hayot” deb tushunib, unda farzandlari baxtli yashashiga qattiq ishonadi. Hatto partiyadan o‘chirilganini eshitganida ho‘ngrab yig‘lab yuboradi. Tuhmat, ig‘vo va chaqiq orqasidan qamoqqa tushganda ham, badnom bo‘lib sibir sovuqlariga surgun qilinganida ham, urush janggohlarida qon kechganida ham, partiya safiga yana qaytish orzusi tark etmaydi. Sodiqning bu sifatlariga bugungi nuqtayi nazaridan yondoshsak chalkashliklar kelib chiqishi mumkin. Sodiq Qo‘chqorov shaxsiga o‘sha payt nuqtayi nazaridan baho berish maqsadga muvofiqdir. Zero o‘sha paytda fuqorolarning dunyoqarashi sotsiolizm asosida shakllantirilgan edi. Jamiyat aksariyat fuqarosi xuddi Sodiq kabi fikrlar edi.

Bundan tashqari roman yozilgan payt 1965- yilda adabiyotda sotsiolistik-realizm metodi hukmron metod bo‘lib turgan paytda boshqacha yozish mumkin emas edi. Qolaversa, romanning qatag‘on mavzusi yoritilgan ilk namuna ekanligini hisobga olsak, yozuvchining juda katta ijodiy jasorat ko‘rsatganiga guvoh bo‘lamiz.

Romanda eng ishonarli, hayotiy bo‘yoqlarda tasvirlangan asar qahramoni hatoyidagi fojialarda va roman voqealarida muhim rol o‘ynagan obrazlardan biri bu Mirsalim obrazidir. Yozuvchi Mirsalim obrazini uning butun murakkabligi bilan tasvirlaydi. Mirsalim obrazini hayotda o‘zi yaxshi tanigan, bilgan kishining pratatipi asosida yaratganiga shubha yo‘q. Mirsalim obrazi asar avvalida go‘yo hojatbaror, kishilardan yordamini ayamaydigan etib gavdalangan. Voqealar rivojida o‘quvchi buning aslida niqob ekanligini, aslida uning riyokor kimsa ekanligining guvohi bo‘lib boradi. U o‘z manfati yo‘lida hech qanday yo‘ldan qaytmaydi. Uning ikkita tili bor. Birisi uyda gapirsa, ikkinchisi ko‘chada gapiradi. Shuningdek ikkita familyasi ham bor. Revalyutsiyadan oldin Mirzohidiy bo‘lgan bo‘lsa, revalyutsiyadan so‘ng Mirzohidov. Asar boshidagi Mirzohidov asar oxirida, Gitler lagerida yana

Mirzohidiyga aylanib oladi. Zamona zayli bilan o'zgarib turuvchi bunday "buqalamum" kimsalar, o'sha davr ruhiyatiga xos eng xarakterli xususiyatlardandir. Aslida kim xalq dushmani, kim xalqning fidoiy farzandi, kabi masalalar o'sha davr hukumatini qiziqtirmasdi. Hukm sohta guvohlarning ko'rsatmasi asosida o'qilavergan. Aslida ham shundaymi? yo yo'qmi? bu hech kimni qiziqtirmasdi. Zamon talato'plaridan silliqqina o'tib ketishning munofiqlikdan o'zga yo'li yo'q edi. Boshqacha qilib aytganda bu davrda riyokor, ikkiyuzlammachi, Mirsalim kabi kishilarning oshig'i olchi bo'lgan payt edi.

Tashqi tomondan Mirsalim katta kuchga ega kishidek ko'rinsada, lekin aslida ichi po'k kishi. U yoniga bir ikki g'alamislarni to'plab, yetmaganiga Sodiqning xotini Musharrafni ham sherik qilib Sodiqdan qutilib oladi. Oldiniga ish bunchalikka borib yetishidan (Sodiqning qamalib ketishidan) esankirab qoladi. Huddi hamma qo'lini bigiz qilib "ana o'z do'stini qamatgan nomard" deb ko'rsatayotgandek. Huddi birov kelib uni tergov qiladigandek uyiga qamalib oladi. Har kuni ertadan kechgacha joynamoz ustida o'tiradigan odat chiqaradi (uning vahimaga tushib qolsa namoz o'qib boshlash odati bor edi). So'ng pisib yotsa o'zini ham ayblashlaridan qo'rqib, darrov to'nini o'zgartiradi. Qayerda ikki odam gaplashib tutganini ko'rsa, oralariga suqilib kirib Sodiqni yomonlay boshlaydi. Majlislarda ham bu haqida gapirib yuradi. Maktabda ham Sodiqni esatadigan narsalarni yo'qotishga kirishadi. (Sodiqning konspektlari, kalxat, bo'ri **chuchelalari** va boshqa) Uning bu harakatlari tezda baland idoralar e'tiboriga tushib maktabga direktor qilib tayinlanadi. U endi yomonlash, ig'vo bilan cheklanmay ochiqchasiga yomonlikka o'tadi. Sodiqning ukasi Qodirni o'qishdan haydatadi, uyini tortib olib ko'chib o'tadi.

Bu orada urush boshlanib, Mirsalimning paytavasiga qurt tushadi. O'zi yomon ko'rgan bir ikkita odamni orqavorotdan urushga jo'natadi. O'zi esa

shuncha harakat qilsada urushdan qolishning epini qilolmaydi. Urushning borishini har kuni radiodan tinglab, Gitlarning g'alabasiga shubha qilmay qo'ydi. Uyida yashirinch a nems tili o'rgana boshlaydi (nems tili nega kerakligi so'ng ma'lum bo'ladi). Urushga jo'nashi arafasida qizi Azizaga yozg'irib yig'laganda kitobxon ko'z o'nggida Mirsalimning subutsiz, jirkanch qiyofasi asl holida namoyon bo'ladi.

Romanda adib "bosmachi" obrazini ham yaratgan. Metod va zamon talablariga ko'ra bu obraz salbiy ma'noda aks etgan bo'lsada, yozuvchi uni Sodiq bilan yonma – yon tasvirlash orqali qatag'on jarayonining asl mohiyatini mohirona ochib beradi. Shu o'rinda Sodiq bilan Dilovorxo'jalarning mana bu suhbat i ahamiyatga molik.

"To'g'risi dushmansiz hayot yo'q. To'g'ri, dushmanlik qilgan kishilarim bor. Ular meningina emas, butun bir sinfn ing dushmanlari. Ularga qarshi kurashdim, ko'p qatori g'alabam bilan quvondim. Mening bu kurshim mehnatimning oily turi edi: kurash – mehnat, mehnat - kurash! Nahot endi men o'sha qarshi kurashganim kishilar safiga o'tib qolsam. Hammasidan ham Dilovarxojaning gapi alam qiladi: "Keladigan yerimiz bitta ekan-u, joningizni muncha jabbarga berib nima qilardingiz o'sha yillari!...

...Dilovarxoja o'z fikriga yakun yasaganday solmoqladi:

– Sizga o'xshagan ola ichimizdan chiqmaganda balki...

–Siz bilan "bitta - yarimta ola" emas, xalq kurashdi. Xalq nima ekanligini bilasizmi ? Dovul! Hali ichimizdan ola chiqib yengilganmiz, deb yuribman deng?

– Ha, xo'p, xalq kurashgan, ekan xalq bilan birga ekansiz, nega endi bu yerda o'tiribsiz?

Sodiq necha oydan beri shu sovalga javob topalmay qiynalar edi. Endi bunga nima desin. Tuxmat desa ishonmaydi, tushunmovchilik desa shuncha vaqt davom etadimi?

– Hammamiz bir bo‘zning uchi bo‘lamiz, uka, boy-kambag‘al – nimasi, musulmon- kofirni ajratish kerak. Din oyoq osti bo‘lib ketdi. Buxoroiy sharifdan nima qoldi! Amir arkida bolalar sigir boqib yurganmish. Ichimizdan ola chiqib, “Voy shochimni bosib olmang” deydigan erkaklar ko‘payib ketdi. Bunaqalarning ko‘pini ko‘rganman, bunaqalarning oshga qo‘li, gapga tili uzun xalos...¹”

Adib garchi qo‘rboshinig tilidan bo‘lsada mustabid tuzum adolotsizligi, o‘zining sodiq o‘g‘lonlarini ham jazoga muhtalo etayotganini ayta oladi. Dard – har qanday badiiy ijod qoni. Inson tanasida qon aylanmas ekan, u yashamaydi. Badiiy asar tarkibida ham qon yanglig‘ dard bo‘lmasa, bunday asar jondan, jonlilikdan mahrum. Demak, haqiqiy badiiy asar dardsiz bo‘lmaydi. Ammo uning namoyon bo‘lishi har xil. Binobarin, salmog‘i, darajasi ham turfa xil. Tusi, tabiati, ahamiyati ham turlicha. Badiiy ijodda dard garchi individuallashtirilgan voqea-hodisalar, obrazlar tasviri orqali namoyon bo‘lsa-da, u hamisha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asar ommalashtirilgan ekan, demak, undagi dard ham ko‘pchilikning qalbida aks-sado bermog‘i kerak bo‘ladi. Ayni chog‘da, qayd etish joizki, dard namoyon bo‘lishidan qat‘i nazar, xususiy holatga taalluqli bo‘lishi yoki ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, dardi bor ijodkorki – millat dardini, orzu-armonlarini-yu, maqsad-intilishlarini ham qalamga oladi.

Romandagi ayollar obrazi ham muhim ahamiyatga ega. Mustabid tuzum xalqni turli toyifaga ajratib tashlash orqali o‘zining hukimronligini mustahkamlab oldi. Chor imperiyasi davridagi “Bo‘lib tashla, hukimronlik qil” shioriga og‘ishmay amal qildi. Xalq turli qatlamlarga ajratildi. Ishchi – noishchi, boy-kambag‘al kabi. Shu xalq ichidan go‘yoki xalq dushmanlari fosh etildi. Shu ma’noda o‘zbek xotin-qizlari hayotida, ma’naviyatida katta

¹ Shuxrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1999. B- 165.

o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yozuvchi hayot mantig'i asosida asar qahramonini ikki marta uylantirib (farzandsizlik natijasida), Sodiq fojiasi orqali bu davrdagi turli ayollar partretini yaratishga muvofiq bo'ladi. Har ikkala ayol ham (Jannat va Musharraf) o'sha davr ayollari timsoli. Shaxsga sig'inish yillari fojialari nafaqat erkaklarni balki, butun jamiyatni o'z domiga tortdi. Bu davr yo'g'on cho'ziladigan, ingichka uziladigan payt bo'ldi. Kishilarning sabrini, irodasini sinadi. Jamiyatda xuddi Musharrafdek o'z eridan, otasidan, aka-ukasidan hatto onasidan ham tonadiganlar topildi. Ayni chog'da Jannatdek vafodor ayollar, aka-uka, yor-do'stlar ham talaygina edi .

Asarga "asl aynimas" maqoli asos qilib olingan. Shunga ko'ra romanga "Oltin zanglamas" nomi berilgan. Oltin bu- haqiqat timsoli. Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi. Yozuvchi o'z asariga shu nomni berish barobarida, bir kun kelib haqiqatning tantana qilishi boshorat qilgandek, kelajakda yaxshi kunlar kelishini, xalqni yo'qotib bo'lmasligini ta'kidlagandek go'yo. Romanda mushtiparu – munglig' o'zbek onasi Adolat xola obrazi yaratilgan. Stalin vafotidan so'ng, shaxsga sig'inish oqibatlari tugatila boshlagach, ko'pgina qismatdoshlari qatorida Sodiq ham oqlanadi. Shu munosabat bilan o'zi direktorlik qilgan maktabda konferensiya o'tkaziladi. Rayon partiya komiteti sekretari va boshqa Sodiqning qadirdonlari so'zga chiqib: shaxsga sig'inish yillarining xunuk oqibatlari, Sodiqning fazilatlar haqida gapirib Sodiqning oila a'zolariga Sodiqning urush janggohlarida erishgan, lekin ololmay ketgan ordenini topshiradi. Shuncha jafolarni ko'rib, g'am g'ussaga chidagan Adolat xola, yaxshi kunlar sevinchini ko'tara olmadi, tantanadan keyin uch kun yotib vafot etdi¹.

Adolat xolani ushlab turgan narsa yaxshi kunlar umidi edi, jondan ortiq ko'rgani farzandi nomi oqlanib, haq joyiga qaror topgach u omonatini toshirdi. Shu kabi xalqni ham yengib bo'lmaydi. Jahonni zir titratgan ne ne

¹ Shuxrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1999. -B. 304.

jahongirlar o'tdi. Xalq esa abadiy qoladi. Hech kim bu xalqni mahv eta olmaydi. Bunga qariyb bir yuz ellik yil davom etgan chorizim istilosi misolida ham amin bo'lsak bo'ladi. Badiiy vaziyat, sharoit-personaj iroda yo'nalishini ta'minlaydigan yoki shakllangan xarakter mohiyatini faoliyat yo'sinida ochadigan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, oilaviy, umuman, insoniy munosabatlar keskinlashuv vaqti. Bu fikrimiz asosan badiiy asar markaziy obraziga taalluqli. Keskin badiiy vaziyat, sharoitda nafaqat qahramon, balki har bir obraz o'zining mohiyati, fe'l-atvor xususiyatlarini o'zi ocha boradi.

II BOB.

BADIIY TABDILDA TIPOLOGIK MUSHTARAKLIK HAMDA IJODIY INDIVIDUALLIK

2.1. Muhit va shaxs qiyofasini ochishda tafsilot hamda tasavvur uyg'unligi

Roman (frans. roman dastlab roman tillarida yaratilgan badiiy asar) – inson hususiy hayotini jamiyat bilan bog‘lab, keng tasvirlovchi yirik epik janr.¹ Muayyan shaxs taqdiri, uning o‘zini anglab yetishi: ongining uyg‘onishi, xarakterining tashkil topishi va shakllanishi roman markazida turadi, shaxslar taqdiri vositasida ijtimoiy hayotning u yoxud bu jihatini ifodalaydi. Qissa va hikoyadan farqli o‘laroq, romanda qalamga olingan voqea-hodisalarda ko‘p personojlar qatnashadi, ularning hayoti va kurashlar bir-biri bilan bog‘lanadi. To‘qnashadi. Yuqorida qayd etganimizdek, roman markazida shaxsiy taqdir va o‘y kechinmalarga ega bo‘lgan, inson turar ekan, demak, romanda xarakter yaratish masalasi g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi: roman qahramoni, tamomila individual shaxs va ayni chog‘da, jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli romanda individual taqdir orqali ijtimoiy hayotning, xalq turmishining u yoxud bu jihatlari badiiy tadqiq qilinadi. Chindan ham yetuk roman xalq hayotining ma’naviy ko‘zgusi hisoblanadi. Roman keng qamrovli (romanbop), ulkan fikr mahsuli bo‘ladi. Agar, hikoyada qahramon hayotidagi biron bir voqea hikoya qilinsa, qissada barcha voqealar va persanojlar qahramon hayotini va mohiyatini ochishga qaratiladi. Romanda esa, qahramon (yoki qahramonlar) obraz, voqealar birikkan holda davr ruhiyatini aks ettirishga xizmat qildiriladi.

Romanning mavzu ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib o‘z janr taraqqiyoti davomida turli mavzularda romanlar yaratilgan: XX asrning 90- yillaridagi

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: O‘zbekiston, 2002. B-485.

ijtimoiy-siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar natijasi o'laroq, o'zbek romanchiligida Stalin qatag'onlari haqida romanlar yaratila boshladi. Shunday asar Shukrulloning "Tirik ruhlar" (1992-1998) romani sanaladi.

Roman muallifi Shukrullo Yusupov 1921-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat pedagogika institutini tugatgan. O'zbekiston Yozuvchilarining uyishmasida, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir bo'lib ishlagan. Shukrullo "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni taqdim etilgan. Shukrullo 1951- yil shaxsga sig'inish davrida nohaq aylanib, yigirma besh yilga surgun qilinadi. XX sezddan so'ng oqlanib uyiga qaytdi. U ijodida she'rlardan tashqari bir qancha nasriy asarlar ham yaratadi. To'qsoninchi yillarda qatag'on mavzusiga murojat qilib "Kafansiz ko'milganlar" va "Tirik ruhlar" asarlarini yaratadi. "Kafansiz ko'milganlar" Shukrulloning Gulag orollarida ko'rgan kechirganlari haqida yozilgan bo'lsa, "Tirik ruhlar" romani birinchi o'zbek yuristi Ubaydulla Xo'jayev haqidadir. Adib har ikkala asarni o'z xotiralari, ko'rgan kechirganlari, zamondoshlari, shuningdek, qarindoshlarining esdaliklari haqidagi faktlarga tayangan holda yozgan. Har ikkala asarda ham yozuvchi shaxsi aks etgan. "Kafansiz ko'milganlar" qissasi qahramoni yozuvchining bevosita o'zidir. Ya'ni avtobiografik asar bo'lsa, "Tirik ruhlar" romani qahramoni Ubaydulla Xo'jayev esa, yozuvchining bevosita ko'rgan bilgan odami, ya'ni u Ubaydulla Xo'jayevning jiyani. Adib asarni yozishda o'z xotirasi va qolaversa tarixiy faktlarga tayangan holda yozadi. Shuningdek, asarda yozuvchi Ubaydulla Xo'jayev haqidagi xotiralarini ko'pincha otasi tomonidan aytib berilganligini bir necha o'rinlarda eslatib o'tadi.

Roman qahramoni Ubaydulla Xo'jayev tarixiy shaxs bo'lib, u O'zbekistonda mahalliy xalq orasidan chiqqan birinchi o'zbek yuristi. Ubaydulla Xo'jayev Toshkent shahar Shayx Xovandi Tahur dahasi, Mergancha mahallasida Asadulla Abdurahmonxo'ja bog'bon va To'xtabibi

aya oilasida 1885- yilda dunyoga kelgan. Uning Bashrilla, Sunnatilla va Muborakxon singari ukalari va singlisi bo'lgan. Otasi Asadulla Mahsum o'qimishli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lib, u zamonaning zayli bilan uchala o'g'lini ham rus tuzem maktabiga o'qishga beradi. O'g'illari xat-savodni yaxshi chiqarib yetuk tarjimon bo'lib yetishadi. Katta o'g'li Ubaydulla o'qishni tugatgach, Toshkent shahar birinchi uchastkasining Miravoy sudyasi Oranskiyga kamtarona ish haqqi evaziga ishga joylashadi. U keyinchalik Toshkent okrug sudiga erkin mirza sifatida ishga joylashadi va ishbilarmon mahalliy kishilarning biri sifatida sudda tanish orttiradi. Unga mahalliy yuristlardan biri e'tibor berib, uni Rossiyaga o'zi bilan olib ketadi. Rossiyada u ish yurituvchi bo'lib ishlaydi. Shuningdek, Saratov inistitutiga o'qishga kirib, advokatlik diplomini olishga muvaffaq bo'ladi.

Toshkentga kelgach xususiy advokat sifatida ish boshlaydi, qolaversa "Xurshid" gazetasining xodimi sifatida ham ishtirok etadi. 1905- yil oktabr monifesti e'lon qilingandan so'ng o'zi gazeta ochishga harakat qiladi va o'zi bosh muharrirligida "Sadoyi Turkiston" gazetasini chiqaradi, shuni aytish joizki, chor hukumati mahalliy tilda gazeta chiqarishiga xayrixoh emasdi, shuning uchun Ubaydulla Xo'jayevning gazetasi turli qiyinchiliklarga uchraydi. 1914- yil yanvar oyidan chiqishi kerak bo'lgan gazeta 1914-yil aprel oyidagina chiqishga erishadi. Faqatgina Ubaydulla Xo'jayevning say harakati tufayligina gazeta dunyo yuzini ko'rishga muvaffaq bo'ladi. "Sadoyi Turkiston"ni Ubaydulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Muzaffarzoda, Shokirjon Raximiy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Mirmulla Shermuhammad, Tavvallo barchalari qo'lni qo'lga berib gazetani 1914-1915 yillar mobaynida muntazam chiqarib turadilar. Ammo gazetaning iqtisodiy yuki ko'proq Ubaydulla Xo'jayevga tushardi. Mablag' yetishmasligi

natijasida gazeta yopilib qoladi. Ubaydulla Xo‘jayev yana gazeta ochishga urinadi, lekin ruhsat ololmaydi.

U xususiy advokat bo‘lib hamma vaqt mahalliy xalq vakillaridan yordamini ayamay kelgan. Jahon urushi boshlanib oq podsho mardikor olishga farmon bergach Ubaydulla Xo‘jayev bu farmonga o‘z fikrini bildirib, mardinor emas, askar yuborish kerak degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Mardinorlikka qarshi Toshkentda, Jizzahda ko‘tarilgan qo‘zg‘alonlarini bostirishga harakat qiladi, shuningdek, u Mardikorlarni uyiga qaytarishga harakat qiladi, oxir oqibatda bunga erishadi. Uning mahalliy xalq orasida obroyi katta bo‘lgan. U chor hukumati vaqtida ham, sovet davlati tuzilgandan keyin ham rus ma’murlariga xavfli odam sanalib, hamma vaqt taqib va kuzatish ostida bo‘ladi.

Oktabr revolyutsiyasidan so‘ng, Lenin va Stalin mustamlaka o‘lkalarga muxtoriyat berish haqidagi va‘da bergach, Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati tashkil topdi. Ubaydulla Xo‘jayev Muxtoriyatning arboblardan biri bo‘lib, u harbiy vazir vazifasini bajaradi. Afsuski bolsheviklar o‘z so‘zlaridan tonib uch oy o‘tar o‘tmas, Turkiston Muxtoriyatini qonga botiradi. Muxtoriyat ag‘darilib, uning rahbarlari hibsga olinadi. Bu paytda Ubaydulla Xo‘jayev Samarqandga mablag‘ va askar to‘plash uchun ketgan edi. Ana shu tasodif tufayli u omon qoladi. Qo‘qon voqealaridan so‘ng Boshqirdistonga ketadi. Bu paytda Orenburgda ham muhtoriyat tashkil topgan bo‘lib, Turkiston Muhtoriyati tor-mor etilgach Boshqirdistondagi Muxtoriyat boshiga ham shunday kun tushadi. Shu joyda, Ubaydulla Xo‘jayev qamoqqa olinib, Moskvadagi Butir turmasiga yuboriladi. Bu yerda boshqird do‘sti Ilyos Alqin bilan birga o‘tiradi. Ubaydulla Xo‘jayev turmadan chiqqach Toshkentga qaytadi. 1931- yil yana qamoqqa olinib, 10 yilga surgun qilinadi. 1937- yil muddatidan oldin chiqib kelgach Toshkentda singlisi Muborakxonning uyida turadi. 1938- yilda yana qamoqqa olinadi. Tergovda 1918-20 yillarda ingliz

josuslari uchun ishlagan degan aybni to'nkaydilar. Tergovchilar unga birorta aybni to'nkab, ayblay olmaydilar. Shunga qaramay SSSR NKVDning Maxsus kengashi Ubaydulla Xo'jayevni josuslikda ayblab, 1939- yil 8- yilga surgun qilish to'g'risida qaror chiqaradilar. U 1939- yil qamoqxonada vafot etgan.

Ubaydulla Xo'jayev oradan ellik yil o'tgach 1989- yil to'la oqlanadi. Uning ijtimoiy siyosiy huquqlari tiklanadi. O'zbekning asl farzandlarida biri Ubaydulla Xo'jayev o'qimishli kishi, qolaversa u yurist bo'lib, qonunlarni yaxshi bilardi. Shuncha bilim, qonunlarni egallagan kishi mustabid tuzumning adolatsiz changallaridan chiqishga yo'l topolmabdimi, unda omi fuqaroning holini tasavvur qilish qiyin emas.

Shukrulloning "Tirik ruhlar" romani xalqning ana shunday fidoiy o'g'lonlaridan Ubaydulla Xo'jayev haqida. Asar muallif tilidan hikoya qilinadi. Matnda voqea-hodisalarni tafsilotini berish va xotirlash orqali, muallif o'sha davr ruhiyati va manzaralarini chizadi. Shuningdek, qatag'on jarayonining shavqat bilmas va adolatsizliklarini fosh etishga harakat qiladi. Asarning asosiy voqealari mahalliy advokat Ubaydulla Xo'jayev ustidan chiqarilgan o'lim haqidagi hukmning xabari bilan boshlanadi. Otishga chiqarilgan hukm ayblanuvchining yaqin qarindoshlari va yaqinlarining bu hukmga munosabatini aks ettirgan adib, o'quvchini Ubaydulla Xo'jayev shaxsi, jamiyatda tutgan o'rni va bajargan ishlari haqida tanishtirishga o'tadi.

Agar Shuhrat "Oltin zanglamas" romanida qatag'on voqealarini qahramonlar harakatlari va dialoglari, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli-tuman voqealari orqali ochib bersa, Shukrullo "Tirik ruhlar" romanida bu jarayonni voqealarning batafsil tafsilotini berish, joiz va nojoiz tarzda o'z tasavvurlari orqali ochishga urinadi. Masalan: Ubaydulla Xo'jayevni otish haqida qaror chiqarilganda butun qarindosh – urug'lari, xususan, onasining bu voqeaga nisbatan dod-voyini aks ettiradi. Asardan olingan mana bu

parchaga e'tiborni qaratamiz:,, Ammo bu shum xabarni eshtgan onaning holi ne kechdiykin? Uning ahvolini tasavvur qilib bo'lmasdi. Ayni navqiron yigit chog'ida vafot etgan o'g'li Abdulazizning dog'i yuragidan arimasdian, kutilmaganda yana bir o'g'li Ubaydullaxon otishga hukm qilinganligi xabarini eshtgandagi oh-u dodiga chidab bo'lmasdi.

- Shu niyatda seni tuqqanmidim bolam!... tug'may o'lsam bo'lasmidi! Xudoga nima yozgandim! Xudo menga dono, dunyoga aqli yetadigan farzand o'rniga dovdirroq o'g'il berganda bu azoblarga qolmasdim!

Taskin berolmaysan! So'z topilmaydi! Birdaniga ikkin navqiron o'g'ildan ayrilish azobiga chidash osonmi! Xudoning o'zi to'zim bersin!

Bu onalarning oh-u dodini eshtib tosh yuraklar ham bardosh berolmasdi.

Mana necha yilki, bu onalarning faryodlari, nolalari yuraklarni tilka pora qilib, quloqlardan ketmaydi.

Hech Bandai mo'minga farzand dog'ini ko'rsatmasin! Onam, deb yig'latsin-u, bolam deb yig'latmasin. Xudoyo, xudo bando, bu ko'rguliklarni hech bandaning boshiga solma!

Bu faqat Ubaydulloxonning boshiga tushgan ko'rgulikmidi? Uning faryodimikin?! Yo'q! 24 yoshida qamalib, Sibir sovuqlarida qolib ketgan Usmon Nosir onasining ham faryodi edi.”¹ Tarzida adib romanidagi onaning nolasini o'zining o'y fikrlari bilan hamohanglikda ifodalaydi.

Shuhratning „Oltin zanglamas” romanida ona obrazining qatag'on jarayonidagi holatini boshqacharoq tarzda keltiradi.,,...o'zi tinchlikmi, bolam? deganicha Adolat xola eshik yonida toshdek qotib qolga edi.,,o'zi hozir keladi” bilan boshlangan tintuv tun oqqanda tugadi. O'rta bo'y, oq-sariqdan kelgan (keyinchalik Qodir aktdan ismini bilgan Pushkaryov) chetda rangi bo'zdek oqarib tashqarida o'tirgan Adolat xolaga tez-tez qarab qo'yardi. Uning nazarida kampir juda holdan toyib borayotganga o'xshar,

¹ Shukrullo. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.: Sharq. 2007. –B. 174.

hali zamon qo‘lidan bola tushib ketib, o‘zi ham mukkalab yiqiladigandek ko‘rinardi. U Qodirni sekin yoniga chaqirdi.

- Valerianka yo‘qmi, kampirga ozgina ichirib qo‘ysangiz!” – dedi”¹

Yuqoridagi holatlarda qatag‘on mashinasi domiga tushgan farzandlar taqdiriga kuyib yongan onalar obrazi gavdalantiriladi.

Shuhratning “Oltin zanglamas”ida onaning ahvoli ruhiyati orqali real hayotdagi konkret ona ko‘z oldimizda gavdalanadi. Onaning darduyayg‘ulari kitobxonga o‘tib, o‘quvchi onaning g‘amiga bevosita sherik bo‘ladi.

“Tirik ruhlar”da esa bu holat boshqacharoq tus oladi. Bunda muallif onaning dard olamiga o‘z munosabatini bildirib, o‘quvchi mustaqil munosabat bildirishiga o‘rin qoldirmaydi. Bunda onaning faryodi o‘quvchiga bir axborot tarzida yetib keladi. Farzandi otilishga hukm qilingan onaning ahvol ruhiyati o‘quvchiga yuqmaydi. Muallif onaning faryodi tafsilotida davom eta turib, bu faryod Sibir sovuqlarida qolib ketgan Usmon Nosir, xalq dushmani sanalib otilib ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lponlar, Akmal Ikramov, Fayzulla Xo‘jayev onalarining ham faryodi ekanligini uqtirib ketadi. Buning bilan adib Ubaydulla Xo‘jayev onasi misolida o‘sha davrdagi barcha onalarni holat ruhiyatini aks ettiradi.

Adib romanni yozishda tarixiy materiallardan, faktlardan keng foydalanadi. Bu faktlarning barchasini Ubaydulla Xo‘jayev shaxsi, shuningdek, repressiya jaroyonining asl mohiyatini ochishga qaratadi. Qatag‘on mashinasi domiga bir ilingan kishi, butun umr uning to‘ridan ozod bo‘lolmaydi. Bu mashina kishilarning gunohi bormi, yo‘qmi bunga qarab o‘tirmaydi.

Romanda adib Ubaydulla Xo‘jayevning mustabid tuzum uchun xavfli sanalib kelinganini Saratov institutrida o‘qib yurganida Lev Nikolayevich

¹Shuxrat Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1999. –B. 131-132.

Tolstoyga yozgan xatidan boshlanganini ishonarli dalillaydi. Lekin bu jarayonda ham Tolstoy va Ubaydulla Xo‘jayev mulohazalariga ko‘p o‘rin ajratmay, voqea tafsilotiga ko‘proq o‘rin ajratadi. Garchi adib Ubaydulla Xo‘jayev shaxsini ko‘rgan bilganlarning xotiralariga tayangan holda, asar yaratgan bo‘lsada, ko‘p o‘rinlarda o‘zining shaxsiy fikr mulohazalari tasavvur mushohadalarini ham asar davomida o‘rinli o‘rinsiz bertib boradi, bu holat asardagi suhbatlarda ham, hatto Ubaydulla Xo‘jayev haqidagi mulohazalarida ham o‘z aksini topgan, bu o‘rinda asardan olingan quyidagi parchaga e’tibor bersak.

“Bola - chaqa orzusi muhabbat lazzatidan kechgan Ubaydulla

Ayriliqdan kim o‘libdi,

Hammadan o‘lim yomon...

degan naqlga amal qilib, yoz o‘rtalarida o‘zi Toshkentda birga ishlagan rus sudyasi bilan Saratovdagi oliy huquq o‘quv yurtiga jo‘naydi”.¹

Parchadan ko‘rinadiki, Ubaydulla Xo‘jayevning Saratovga o‘qishga ketish jarayonidagi ahvol ruhiyati butun asarda bo‘lgani kabi obektiv tarzda ifodalaniladi. Adib romanni yozar ekan, uni o‘z mulohazalari bilan boyitib boradi. Lekin yozuvchi qahramon haqida aytar ekan, uning xarakterini ochishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Ya’ni romanda qahramon harakteri, yaxshi yoritib berilmagan. Vaholanki, roman janri talabiga ko‘ra, qahramon xarakterini yaratish g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, roman uchun zarur elementlarning yana biri bu konfliktdir.

Ingliz yozuvchisi, publitsisti, tarixchisi, adabiyotshunosi Raul Foks (1900-1937) o‘zining “Roman va xalq” tadqiqotida “...roman inson bilan jamiyat o‘rtasidagi muvozanat yo‘qolgan joyda rivojlanadi” deb yozadi. Shunga ko‘ra Ubaydulla Xo‘jayev bilan u yashagan davr o‘rtasida kuchli ziddiyat mavjud. Ubaydulla Xo‘jayev o‘z davri uchun ziddiyatli shaxs. Ya’ni

¹ Shukrullo. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2007. –B. 229.

o‘z davridan ilgarilab ketgan, davrining qoloqlilari, ikkiyuzlamachiliklari qolipga sig‘maydi. Muallif asarda Ubaydulla Xo‘jayev va uning davrini butun tafsilotlari bilan ta’riflaydi-yu, uning harakterining tadrijini shakllantirmaydi. Asarda umuman konflikt yo‘q. Asar boshdan oxir bir xil uslubda yozilgan. Xattoki, Ubaydulla Xo‘jayevning Stalin bilan uchrashganida ham konflikt yuzaga kelmaydi. Bu jarayonda adib dialogdan juda kam foydalanadi. Xolbuki, badiiy asarda dialog qahramon xarakterini ochish va konfliktni yuzaga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi. Yozuvchi bu o‘rinda ham o‘z pozitsiyalariga sodiq qolib uning munosabatlarini bildirishda davom etadi. Shu o‘rinda Ubaydulla Xo‘jayev, Ilyos Alqin va Stalin suhbat berilgan parchaga e’tibor qaratsak:

“Stalin bular bilan uchrashganda qamalgan yoki qamoqdan chiqqan mahbuslar sifatida emas, go‘yo buni bilmagandek, ikki mustaqil davlatning vakillari bilan uchrashgandek muomulada bo‘ladi...

Shuhbat ularning o‘zini baland qo‘ymasdan, inoqlik ruhiyatida o‘tdi. Bularga Stalin hatto ichki tuyg‘ularni, o‘zining hayotida bo‘lgan nuqsonu armonlarni ham yashirmay aytishga ishonadigan do‘stlar sifatida munosabat bo‘ladi. Suhbat davomida juda xotirjamlik bilan trubkasini tutatib, katta bir tashvishdan qutilgandek:

- Yoshligimda men ham millatchi bo‘lganman, mana endi undan batamom qutildim. Sizlarchi? – degandek o‘rtaga gap tashladi. Bularning ko‘ngliga qo‘l sola boshladi.

Nega birdan he yo‘q, be yo‘q, millatchilik haqida gap ochib qoldi? Buning tagida nima bor, bu nimaga ishora? Bu bilan Stalin nima demoqchi? Nega bir og‘iz Turkiston Muxtoriyatining taqdiri uning qonga belanish sabablari haqida gap ochmadi? Nega tepasida o‘zi turgan bu qirg‘indan xabari bo‘lmasin”.¹

¹ Shukrullo. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2007. –B. 234.

Romanni yozishda adib tarixiy hujjatlar, faktlarga asoslanib harakat qiladi. Shubhasiz, u bu voqealarni juda yaxshi bilgan. Lekin bir o‘rinda mardikorlar qo‘zg‘aloni haqida ayta turib nima uchundir bu voqeani 1914-yil deb ko‘rsatadi. Bu holat roman nashri bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, yana bilmadik.

Romanda qamoqxona, undagi shart-sharoit, qatag‘on qilinganlarga nisbat qilingan tergov jarayonlari ishonarli tarzda ochilgan. Ehtimol muallif bu jarayonlarni o‘zi boshidan kechirganidan bo‘lsa ajabmas. Nima bo‘lganda ham Shukrullo xalqimiz tarixining “eng qora kunlari” aks etgan “Tirik ruhlar” romani orqali millatimizning fidoiy farzandi Ubaydulla Xo‘jayev shaxsi va faoliyati haqida muhim manba bo‘luvchi asar yaratdi deya olamiz.

2.2 Tasvir haqqoniyligi va badiiy g‘oya mohiyati

O‘zining minglab kitobxonlarini topgan O‘tkir Hoshimov asarlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh xalqlarning ham sevimli yozuvchisiga aylangan. Biz uning kitoblarini o‘qiganimizda ijodi xalq hayoti bilan naqadar yaqin ekanligining guvohi bo‘lamiz. Uning yozganlari afsona, ertak ham emas, sof haqiqat. Kitobxon unda yo otasi, yo akasi va yo yaqin kishisi bilan uchrashadi. Olamdan nom-nishonsiz o‘tib ketgan, ammo shon-sharaf bilan yashagan kishilar ko‘z oldimizga keladi. Ularning quvonchlaridan ko‘nglimiz ko‘tarilsa, g‘amu – alamlaridan ko‘zlarimizdan duv-duv yosh to‘kiladi.

O‘tkir Hoshimov adabitotga shaxsga sig‘inish barham topa boshlagan 50- yillarning oxiri 60- yillarning boshlarida kirib keldi. O‘zining dastlabki asarlari bilan atoqli adib Abdulla Qahhor nazariga tushadi, xalq mehrini qozonadi. Aytish mumkinki, O‘tkir Hoshimov omadli yozuvchi. U adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda ijtimoiy hayotda bo‘lganidek, badiiy adabiyotda ham erkinlik shabadasi esa boshlagan vaqt edi. Bu paytga kelib yozuvchilar o‘z ko‘nglidagilarini ochiq aytmasa ham ancha erkin yoza boshladilar. Xuddi shu davrda O‘tkir Hoshimov asarlari birin - ketin dunyo

yuzini ko'ra boshladi. Bir qator qissa va hikoyalari bilan xalq mehrini qozongan adib yetmishinchi-yillarning oxirlarida roman janriga qo'l urdi. Dastlabki romani "Nur borki soya bor" 1977- yilda yozilgan bo'lib, unda jamiyatda avj olgan "korruptsiya" muammosi olib chiqiladi. Asar yozilgan payt turg'unlik yillarida bu roman adabiy hayotga yangilik bo'lib qo'shildi. Adibning ikkinchi romoni uning Shuhratiga yana shuhrat qo'shgan. "Ikki eshik orasi" (1982-1985) romanidir. Roman prablematikasi nihoyatda keng. Undagi voqealar XX asrning o'ttizinchi yillaridan to oltmishinchi-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ramanda o'tizinchi yillardagi qatag'oni ham, urush yillaridagi mashaqqad ham, urishdan keyingi iqtisodiy tanglik ham, 60 yillardagi tinch hayot ham bor, ammo adib har bir davrni tasvirlar ekan, o'sha davrning achchiq alamlarini qalamga oladi. Muallif o'ttizinchi yillar qatag'onini, urushning dahshatlarini ko'rmagan bo'lsa ham, ularni o'zi shaxsan guvohi bo'lgandek tasvirlaydi, O'kir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romani uchun 1986- yil "Hamza" nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Daryoga qayiq tashlab unga o'tirmaguncha uning nafasini yaxshi his qilmaysan. Suningdek, tog'ning ulug'vorligini tog'dagi toshda turgan odam emas, aksincha unga uzoqdan nazar tashlagan kishi yaxshi his qiladi. Ya'ni tog'ga yaqin kelib emas, uzoqdan qaralganda, tog' o'zining bo'y-basti, salobatini namoyish qiladi.

Agar Shuhrat va Shukrullolar xalqimiz tarixidagi eng mudhsh davr repressiya davrini o'zlarining alamli xotiralari asosida yaratgan bo'lsalar, O'tkir Hoshimov esa, yozuvchi nuqtayi nazari bilan qatag'on jabrbrididalarining fojiaiy taqdirini chuqur o'rgangan, jarayonga atroficha yondoshgan holda yozadi. Qahramon adibimiz Said Ahmad "Borsa kelmas darvozasi" hikoyasining yozilish tarixi haqida to'xtalib, hikoyani yozish jarayonida yana qaytadan qamalib chiqqandek bo'lganini takidlaydi. Shunga

ko'ra Shuhrat va Shukrullolarda asarni yozish jarayonida ichki hissiyot ustun bo'lgan bo'lsa, O'tkir Hoshimovda esa voqelikka holis yondashuv imkoniyatining ko'pligi bilan xarakterlanadi. "Oltin zanglamas" va "Tirik ruhlar" da yigirmanchi - o'ttizinchi yillar qatag'oni yoritilgan bo'lsa, O'tkir Hoshimov o'zining so'ngi romani "Tushda kechgan umrlar" romanida yigirmanchi-o'ttizinchi yillar, urush davri tozalashlari, urushdan keyingi ziyolilar qatag'oni, afg'on urushi va "paxta ishi" repressiyalarini xronologik izchillikda yoritadi.

Mavzuni mantiqan davom ettirgan adib 1995- yili ikki pardadan iborat "Qatag'on" fojiasini yozadi. Muallif agar "Tushda kechgan umrlar" romanida qatag'on mavzuini ancha teran tahlillagan bo'lsa, dramatic talqinda "paxta ishi" bilan bog'liq hayotiy tafsilotlargaagina o'rin ajratadi:

Valentin. Yo'qol deyman!

Myasnikov. Bilib qo'y! Har bitta so'zing uchun javob berasan. Mana shu tillaringni sug'urib olaman! Ikki qulog'ing bilan eshitib ol! Gevorkyan gruppasiga cheklanmagan huquq berilgan! Chek-lan-ma-gan!

Valentin. Gevorkyaninggayam, gruppanggayam qo'ydim¹.

Valentin ikkinchi jahon urushi paytida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan. Xalqimiz bag'rikengligi qatida voyaga etgan qahramon uning eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Og'ir damlarda oilaga madad bo'lgan obraz Berdiyev singari nopok tergovchilar bilan ziddiyatga kirishadi. Qamoqqa olingan tutingn ukasi Panji uchun dunyoning narigi burchagiga ham borishga tayyor! U biladiki, ukasi adolatsizlik qurboni!

Muallif dramatik talqinida qahramon markazini belgilash muayyan badiiy mezonlarga tutashadi. To'g'rirog'i, adib shaxsiyatidan obraz poetik konsepsiyasiga ko'chadigan mantiqiy bog'lam harakat va holatni uyushtirishga xizmat qiladi. Aslida hayotiy materiya – mavhum va ko'p

¹ Ko'rsatilgan adabiyot. -B. 274.

qirrali tushuncha, uni badiiy jihatdan alohidalash ijodkor adabiy mahoratiga payvandlanadi. Bu borada dramaturg fitrati mavzu hamda janr taqozosi ittifoqini hosil qiladigan yetakchi omilga evriladi. Aynan aniq ijtimoiy-tarixiy davr ruhiyati silsilasida xarakter tadriji ifoda, talqin hamda tahlilini topar ekan, aynan bilim va tadqiqot vobastaligi estetik baholash tamoyillarini belgilaydi. G'oya hamda maqsad mushtarakligini namoyish qiladigan nuqtai nazar qayta tiklangan xarakter iroda yo'nalishida maromiga yetadi. Shu ma'noda, O'.Hoshimovning "Qatag'on" fojiasi "o'zbeklar ishi" paydo bo'lish va shakllanish bosqichi tahliliga yo'g'rilgan. Vaholanki, "o'zbek davlatchiligining ildizlari olis asrlarga borib taqalishini e'tiborga olsak, tarixchi olimlar va tarixnavis yozuvchilar oldida shu masalada ham yangi ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borish vazifasi"¹ turganligi ayonlashadi. Unda, bir tomondan, davr voqeligi hamda muammo tahlili to'ldiruvchi mohiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan, mavzu talqini va shaxs ruhoniyl ziddiyatlarini baholashga moyillik qabarib ko'rinadi. Sahna asarida muallif real ma'lumotlar dalolatidan kelib chiqqan va unga asoslangan holda qahramon markazini belgilaydigan voqelik mantiqiy taraqqiyotini izchil tasvirlash yo'lidan boradi. Dramaturg adabiy talqinda qahramon badiiy qiyofasini ochib berish jarayonida ruhiy holatni falsafiy miqyosda teranlashtirishga intiladi.

Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ham anglab bo'lmas darajada cheksizdir. Xuddi shu his-tuyg'ular insonda ikki xil shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega bo'lgan, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega bo'lgan tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Bularning hammasini ong sintez qilib beradi, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin

¹Mustaqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san'at, 2006. –B. 61.

inson ruhiyatida doimo mavjud bo'lgan, obyektiv olam bilan tinimsiz aloqaga kirishib turuvchi hislar. Bu kabi hislar inson ruhiyatining asosini tashkil etadi. Garchi biz biror ishni qilganda, gapirayotganimizda, o'zimizni tutishimiz, holatlarimiz bizga anglangan, ma'lum bo'lgan va xuddi biror mantiqqa bo'ysunganday bo'lib tuyulsa-da, ammo, shu hislarni yuzaga chiqaruvchi, shu tushunchalarga turtki beruvchi asosiy narsa-ong osti hislaridir. Inson ruhiyatida ongli faoliyat, ongli hislardan ko'ra anglanmagan hislar ko'lam jihatidan cheksizdir. Masalan, biz oldimizdan o'tib ketgan mushukni payqamay qolsak-da, ong osti hislari uni o'ziga qabul qiladi va ma'lum vaqtdan so'ng uni o'zi qabul qilgan ramzlar orqali tushimizga uzatadi. Shuning uchun ham tushimiz bizga hamisha g'ayritabiiy tuyuladi. Tushdagi voqea, hodisa, holat yoki obraz aynan ong osti hislarining tashqi dunyoni qabul qilish ramzlari bo'lib, odam ongli faoliyatdan to'xtagan, ya'ni uyqu paytida bu hislar inson miyasiga o'zi qabul qilgan ramzlarni tarqata boshlaydi.

Roman epik hodisa bo'lgani holda undagi biz uchun eng muhim jihatlardan biri subyektiv ibtido (ya'ni, asarda tasvirlangan narsaning o'zigina emas)dir desak, yanglishmagan bo'lib chiqamiz. Zero, roman ijodkor tomonidan ko'rilgan, idrok etilgan va qayta yaratilgan borliqdirki, unda muallifning o'zi yashagan yoki asarda aks ettirilgan davr (jamiyat va inson)ni qanday tushunganiyu baholagani – dunyoyu davr konsepsiyasi o'z ifodasini topadi. Avvalroq aytdikki, klassik tushunchadagi roman ijtimoiy-shaxsiy ehtiyoj mahsulidir. Bu ehtiyoj esa ijodkor shaxsning jamiyat bilan ziddiyatidan yuzaga keladi, ya'ni roman o'z hayot yo'lida chigal muammolarga duch kelgan ijodkorning "ziddiyatli holatni adabiy yo'l bilan yechishga urinishi"¹dir. Mazkur ehtiyojni qondirish uchun ijodkorning hayot material(dispozitsiya)ni badiiy idrok etishiyo ideal asosida qayta ishlab

¹ Прието А. Морфология романа // Семиотика. - М.,1983.- С.371

badiiy reallik (kompozitsiya)ka aylantirishi taqozo qilinadi. Voqyelik bilan muntazam muloqot asosida amalga oshgan ijodiy jarayon (badiiy tafakkur) asar strukturasida muhrlansa, muallif anglagan haqiqatlar asar butunligi(sistema)da o'z ifodasini topadi. Modomiki romanning badiiy voqyeligi muallif ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida qayta yarailgan borliq ekan, u qanchalik obyektiv tasvirlanmasin, bari-bir ijodkor subyektini o'zida aks ettiraveradi. Zero, muallif subyekt roman situasiasidayoq,¹ ya'ni unda personajlarning joylashtirilishi har birining asar voqyeligida tutgan mavqeyidayoq ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi mulohazalarimizdan ayon bo'ladiki, muallif konsepsiyasini bitta-ikkita obrazgina (albatta, ularning roli katta bo'lishini inkor etmaymiz) emas, asarning badiiy voqyeligi–unda yaratilgan yaxlit dunyo obrazi ifodalar ekan. Shunga ko'ra, asar strukturasidagi har qaysi obrazning bunda muayyan roli bor, zero, dunyo obrazi shu katta-kichik obrazlar tashkil qilayotgan butunlikdir. "Tushda kechgan umrlar"dagi obrazlar tizimining tashkillanishini, bizningcha, Quyosh sistemasiga mengzagan holda tushunishimiz qulayroq ko'rinadi. Quyosh sistemasi markazida Quyoshning o'zi turishi hamda o'z atrofidagi sayyoralaru ularning tegrasidagi yo'ldoshlarining joylashishi harakatini belgilashi sizga ma'lum. Shunga o'xshash, romandagi obrazlar tizimi markazida ham dunyo haqida o'zida muayyan konsepsiyani hosil qilish va uni ifodalashga intilayotgan shaxs – muallif turadi. Ma'lumingizki, sayyoralar Quyoshning va o'zlarining tortish kuchlari nisbatiga, katta-kichikligiga bog'liq holda Quyosh atrofida joylashadilar, muayyan doirada aylanadilar. Bizningcha, mohiyat e'tibori bilan Romandagi qahramonlarning roman voqyeligida joylashishi ham shu prinsipga o'xshash: "quyosh"ga eng yaqin sayyora – Rustam, keyin – Komissar, keyin – Qurbonoy.

¹ Эсалнек А.Я. Об особенностях романной структуры // Принципы анализа литературного произведения. - М.,1984.- С.99

O‘tkir Hoshimov avvalgi romani “Ikki eshik orasi”da to‘xtalib o‘tilgan mavzu qatag‘on mavzusini yangi romanini “Tushda kechgan umrlar” ga asosiy mavzu etib tanlaydi. Sobiq Ittifoqi hukmronligi davrida bo‘y –basti sal ko‘rinib qolgan ziyoli bo‘lsa, darhol qaychilab tashlagan Tag‘in har o‘n yilda. O‘n yettinchi yilda inqilob bahonasi bilan, yigirma yettinchi yilda partiya saflarini tozalash vasvasasi bilan, o‘ttiz yettinchi yilda xalq dushmanlari bor deb vahimaga tushib (aslida xalq dushmanlari o‘sha kommunistlarning o‘zlari emasmi ?!) qirq yettinchi yilda josuslarni tutush talvasasida, ellik yettinchi yillarda shaxsga sig‘inishda kimlar ayibdor ekanligini bilish uchun, oltmish yettinchi poraxorlik kasalini yo‘qotish tashvishida, yetmish yettinchi yil afg‘on urush va so‘ngisi “O‘zbeklar ishi“. Agar oldingilari SSSR da yashovchi umumiy xalqlarning boshiga kulfat keltirgan bo‘lsa, oxirgisi bir millatga – o‘zbeklarga qaratildi.¹

Garchi adibning maqsadi o‘sha dahshatli “O‘zbek ishi” deb atalgan qatag‘onni mo‘ljallagan bo‘lsada, Kommisar obrazi orqali SSSR tuzumining zo‘ravonlik asosiga qurilganligini ochib beradi. Bunda adib “O‘zbek ishi” asoslarini ochish uchun to‘rtta davrni qamrab oladi. O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillaridagi qatag‘on, urush yillaridagi tozalash, urushdan keyingi qatag‘on va afg‘on urushi. Ana shu to‘rt davr voqealarining tasviri, to‘g‘rirog‘i to‘rt davrdan olingan yaxlit epizodlar “O‘zbek ishi” ning kelib chiqishiga asos bo‘lganini ko‘rsatadi.

Roman voqealari Rustamning oxirgi kundaligidan boshlandi va asta sekin Qurbanoy xolaning har kungi yumushlariga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Romanning asosiy voqealari to‘rt oy ichida bo‘lib o‘tadi. Ya’ni Rustamning vafotidan uning o‘limi haqidagi ish yopilguncha. Qistirma epizodlarda romanning asosiy voqealariga qahramonlarning kundaligi, xotiralari, xatti –harakatlari, o‘y –fikrlari, ustaliklari tarizda mohirlik bilan

¹ O‘zbekiston milliy entsklopediyasi. 3-жилд. –Т.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, XXXX -B. 168-169.

singdirib yuboriladi. Roman bosh qahramoni Rustam oliygoh talabasi, Sovoq urush tufayli yuzaga kelgan Afgʻon urushi qatnashchisi, ayni chogʻda jabrlanuvchisi. U afgʻon urushidan kantuzyaga uchrab eng achinarlisi majruh boʻlib uyiga qaytadi. Yozuvchi Rustamning kundaliklari orqali afgʻon urushi janggohlarini tasvirlar ekan bu maʼnisiz urushning mohiyatini, mohirlik bilan ochadi. Urushdan qaytgan Rustam, oʻz hayotini izga tushirishga urinadi, Taassufki, Rustamning hayoti endi oʻnglanmaydi. U tirik oʻlikka aylangan edi. Bunday holatda, ruhiy azoblardan oʻlib quritishdan boshqa chora qolmagandek goʻyo. Rustam-ku Afgʻondan majruh boʻlib keldi. Uning xotini Shahnoza esa, tinch hayotida, ota-onasining bagʻrida ham bu urushning asoratlarning achchigʻini tortib koʻradi. Asarda roman voqealarini harakatga keltiruvchi, obraz komissar obrazi harakatlantiriladi. Komissar obrazi orqali adib oʻtizinchi yillar qatagʻonlarining butun dahshatini, urush davri va urushdan keyingi qatagʻonlarning mohiyatini ochib beradi. Aytish kerakki, Kamissar yigʻma obraz Mustabid tuzumning algʻov – dalgʻov yillarida davr talatoʻplaridan oʻz maʼmfati yoʻlida foydalangan qabih kimsalar, mustabid tuzumnining hukmronlik yillarida shakllantirilgan partiyaning “chast berib turuvchi sodiq askarlari” (A.Qahhor), shuningdek, dohiyning har bir gapini partiyaning yoʻlini eng toʻgʻri yoʻl deb biluvchi chekistlarning tipik vakili. Kamissar SSSR ning timsoli, bu narsa muallifning kamissarga bergan tarifgida ham oʻz aksini topadi. Mana oʻsha tarif: “Gʻaniyev Soat Gʻaniyevich 75 yoshda. Itfoq miqiyosaidagi pentsioner millati - yoʻq . Soʻqqa bosh . Avval sudlanmagan”¹.

Endi sobiq itfoqning holatiga ham razm solamiz. SSSR davlati ham qaryib yetmish besh yil umr koʻrdi. Bu davlatning ham millati yoq. Millatchilar unung dushmani. Sobiq itfoq ham huddi komissar kabi yoshligida odamlarning yuragiga qoʻrquv oyogʻiga titiroq qoʻliga kishan

¹ Oʻtkir Hosimov. Saylanma. IV жилд. –Т.: Sharq, 2011. –Б. 34.

soldi. O'z tarixining yemirilish pallasiga kelganda huddi komissardek ora yo'lda so'qqabosh ichdan chirigan holga kelib qoldi.

Yozuvchi bu qahramoning yoshlik paytlaridagi noqobil ishlarini shunday ko'rsatib beradiki, xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar va shu kulfatlarni battar og'irlashtirgan o'z ichimizda chiqqan manqurtlar ekanligiga o'quvchining ishonchi komil bo'ladi. Soat G'aniyev otasining izidan borib, otasining inqilobioy faoliyatini ko'rib ulg'aygan va "o'n besh yoshidanoq komissar bo'lgan"¹ U o'sha kezlardayoq qo'shnisining devori nima uchun o'zlarinikihdan balandligini so'raydi. Otasi qo'shnisi eshonning sinfiy dushmanligini, sirlarini odamlardan yashirmoq uchun devori baland ekanligini aytadi. Soatning tafakkuri birinchi qadamlardayoq ana shunday egri yo'ldan ketadi. Asta-sekin o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. U organda ishlar ekan hammaga dushman deb qaraydi, hammadan gumonsirashni o'zining oily burchi deb biladi. "Yuz foiz hammadan hatto o'zining xotinidan, bolasidan gumon qilmagan kishidan haqiqiy chekist chiqmaydi."² Bu uning hayotdagi amoli.

Shu tarzda komissar yoshligida birga o'ynab katta bo'lgan bolalarning ustidan tuxmatlar uyishtirib ularni qamatadi. O'zining tuzumga sadoqatini isbotlash uchun ko'pgina yaqin odamlarining yostig'ini quritish bilan cheklanmay so'roq paytida ularni jismonan azoblashning juda daxshatli yo'llarini o'ylab topadi. Hatto onasining ta'ziasiga ham "kela olmaydi"³.

Bu obraz orqali yozuvchi e'tiqodsiz, imonsiz kishi, faravonlikka, baxt – saodatga erishishning yakka–yu yagona yo'li sotqinlik, josuslik deb bilishini aniq hayotiy lavhalarda ko'rsatadi. Sotqinlik dardiga girifdor bo'lgan bunday kimsalar pul berilsa bas, hamma narsani, hatto padari buzrukvori-yu, oq sut bergan onasidan ham tonadi. E'zozlaydigan, sajda qiladigan g'oyasining

¹ O'tkir Hosimov. Saylanma. IV жилд. –Т. 2011. –В. 35.

² O'sha yerda, 123-бет.

³ O'sha yerda, 52-бет.

bo‘lmasligi insonni oddiy ijrochiga aylantirib qo‘yadi. Komissarning falsafasi quyidagicha: “Afitser deganning bittayu bitta huquqi bor: u ham bo‘lsa buyruqni bajarish! Yuqoridan falonchini qama degan buyruq keldimi, o‘sha zaxoti qamaydi, surgin qil desa, surgun qiladi. Ot desa otadiyam... Basharti ertaga birisi begunoh ekan oqlansin, degan hukm bo‘lsa oqlaydi! Bu dunyo muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o‘sha mexanizmning kichik bir vintchasi xolas. Har bir vint o‘z vazifasini ado etmog‘i kerak.”¹

Muallif oxir oqibatda bunday sotqin qonxor kishilar xalqning, yurtning nafratiga uchraydigan, odamlarning yuziga tik qarolmaydilar, to‘y hashamlarga kela olmaydilar ular tirik murdaga aylanib qoladilar, degan g‘oyani ilgari suradi.

Ma’naviy qashshoqlikning eng dahshatlisi mustaqil fikrlash madaniyatining yo‘qligidir. Mustaqil fikri yo‘q kishi qo‘rqoqdir, qo‘rqoqlik bilan e’tiqodsizlik biri ikkinchisini kemirib boraveradi. Jamiyat uchun eng xavfli shaxs bu o‘z dardini ichiga yutib, qo‘rquv bilan yashayotgan kishidir. Xuddi o‘sha qo‘rqoq oqni - qora, qorani- oq qilib ko‘rsatadi.

O‘tkir Hoshimov Soat G‘aniev timsolini chizar ekan “zamon bilan hamnafas” bu kamissarning nopokligini ko‘rsatuvchi lavhalarini beradi. U bir mahallada o‘ynab o‘sgan do‘sti To‘laganning qamalishiga bosh qosh bo‘ladi. Uni qamatgandan keyin xotini Fotimaning nomusini poymol qilib, qizi Qurbonoy yetim qoladi.

Adib bu bilan xalqimizning ma’naviyat bobida shunday tanazulga kelib qolganini takidlaydi. Soat G‘anievning e’tiqodsizligi shu darajadaki, u hatto musulmon olamining muqaddas sanalmish “Quroni Karim” ni abisk paytida topib olib burda-burda qilib tashlaydi. Raxbarlik kamissar uchun, dushmanlardan qasos olish quroli, u o‘z xoxlagan ishini qiladi. Lekin u o‘zining asl basharasi ochilayotganidan bexabar. Yurtboshimiz aytganidek:

¹ O‘tkir Hosimov. Saylanma. IV жилд. –Т. 2011. –В. 123.

“Dunyoda inson irodasini sinaydigan vositalar ko‘p. Ammo ularning birontasi ham amal, lavozim, mansab kabi odamlarning kimligini, asl basharasini yaqqol ochib berolmaydi.”¹

Romaning asosiy mavzusi “paxta ishi” “o‘zbek ishi” qatag‘onlarini yoritish, adib romanda buning kelib chiqishining sabablarini chuqur va asosli dalillaydi. Talabalarning paxta terimi paytidagi qiyinchiliklari, paxta dalasi “front” atalib, inson hayoti bunda bir pul bo‘lganligi, bu voqealar Rustam va Shahnozalarning sevgisi bilan omuxtalashib bir butunlik hosil qilgan.

“Paxta ishi” jarayonlari boshlanib, brigadirlar tabelchilar, kolxoz raislari, raykom va obkomlarga bu o‘pqonning domiga tortiladi. Shular qatori Rustamning otasi Shomansur Shomatov ham. Rustam Afg‘ondan kelgach otasining ishi bo‘yicha bir necha idoralarga murojat qiladi. Lekin hech bir idoradan uni qiziqtirgan masala bo‘yicha javob ololmaydi. Bu o‘rinda uning respublika bosh prokurori bilan bo‘lgan suhbatini “o‘zbek ishi”ning butun mohiyatini ochishda ahamiyati katta.

“- Ayting-chi, o‘rtoq prokuror! Respublika Oliy Sovetining kamida ellik ming odam saylagan deputatini, saylovchilar chaqirib olmasdan turib, shunchaki, bir kechada QPZ ga tiqib qo‘yish mumkinmi?

Bu go‘dakka qonun – qoidani kim o‘rgatadi, degandek ko‘zimga diqqat bilan tikilib turdi-da, dona- dona qilib tushuntirdi:

- Mumkin! Deputatidan tortib rahbarlarigacha qo‘shib yozishni, poraxorlikni kasb qilib olgan respublikada hamma narsa qilish mumkin!

Ajab! Uning qancha jahli chiqsa, kulrang ko‘zlari qancha yonsa, men o‘zimni shuncha xotirjam his eta boshladim.

- O‘zbekiston shunchalik aynib ketgan ekan, - dedim kihoya bilan. – Markazga tola o‘rniga vagonda havo, samolyotda diplomat to‘la pul borgan ekan, nega u yoqdagilar, indamabdi? Nega “bizga pul emas, tola kerak?”

¹ Karimov I. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T.: O‘zbekiston, 1995. –B. 62.

demabdi? Nega bu yoqdan turib pora uzatganlarni qamoqqa tiqasizlar-u, u yoqdan turib pora olgan kazo-kazolar bilan ishiningiz yo‘q?”

U shoshilmay o‘rnida turdi. Boshi “inqilob chavandozi”ning kindigiga taqalib qolgandek bo‘ldi.

Ikkalamizning hozirgi holatimiz g‘alati edi. Shoshilib ketayotganingizda oyog‘iningiz ostida allaqayoqdan sakrab tushgan chigirtka paydo bo‘ladi. Bosib ezg‘ilab tashlasammi, indamay o‘tib ketsammi, deb bir soniya ikkilanib qolasiz, chigirtka esa o‘chakishgandek qilt etmay turaveradi, surbet! Shu topda U ham ikkilanib turadi. Men – chigirtkani bosammi-yo‘qmi? O‘ladigan ho‘kiz boltadan toymadi, deyishadi. Endi menga hammasi baribir edi. Qo‘lidan kelsa otib tashlasin. Gapimni aytib bo‘lmaguncha qimir etmayman!

- Agar yigirma ming odamdan boringki mingtasi nohaq qamalgan bo‘lsa, - dedim dilimdagini aytib olish uchun shoshilib. Mingta odam bir yildan nohaq “o‘tirs” ming yil bo‘ladimi! Hazon bo‘lgan ming yilning hunini kim to‘laydi? Ambartsumyanmi? Sizmi? Hammaningizni yig‘ishtirib kelganda ham umriningiz yetmaydi-ku! Uning kulrang ko‘zlarida bo‘rinikiga o‘xshash o‘t yonib ketdi. Ha, mana endi qaytding asl qiyofangga! Qurbonning boyniga xanjar botirayotgan jallodning ko‘zlari shunaqa bo‘lsa ajabmas!

Qiziq.... U stolni mushtlamadi. Soqchi chaqirmadi. Sichqon bolasiga tikilgan mushukdek sekin labini yalab qo‘ydi.

-Soplyak! - dedi iztehzoli qilib. - Men seni qabul qilmasligim mumkin edi. Afg‘onistonda xizmat qilganing hurmati....

- Afg‘onistonni qo‘ya turaylik, o‘rtoq prokuror! - dedim horg‘in ohangda. - “Ikki yuzingchi” yuk faqat Afg‘onistondan emas, mamlakat ichkarisidan ham yog‘ilib kelyapdi. Ularning xununi kim to‘aydi? O‘zbek xalqini butun mamlakatga badnom qilganlar emasmi?

Stul suyanchig‘iga tirsagimni tayab, o‘rnimdan turdim. Oyoqlarimda mador yo‘qligini endi sezdim. U bo‘lsa, ko‘zlaridan o‘t sohib qilt etmay turardi.

- Oxirgi gap, - dedim kursi suyanchig‘ini changgallab. - Oxirgi savol: nega “o‘zbek ishi!” “Arman ishi” emas, nega “o‘ris ishi” emas! O‘zbek nima gunoh qildi sizlarga?!¹.

Shuningdek romanda “Paxta ishi” bahonasi bilan markazdan yuborilgan “noyob” kadrlarning O‘zbekistonga kelib ko‘rsatgan karomatlari, shundoq ham jar yoqasiga kelib qolgan Respublikaning yanada nochorlashishida qo‘shgan hissalar ijtimoiy hodisalar bag‘riga singdirilgan holda tasvirlanadi.

¹ O‘tkir Hosimov. Saylanma. IV жилд. –Т., 2011. –В. 220.

III BOB.

HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY MAHORAT MASALASI

3.1. Qahramon yaratish tamoyillari

Istiqlol adabiyotimiz oldiga xalqimizning azaliy merosini, milliy qadriyatlarini umuminsoniy mezonlar bilan oʻrganish va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi oʻrni hamda ahamiyatini koʻrsatish masalasini koʻndalang qoʻydi. Zero, “Har birimizda milliy gʻurur, milliy ong, tafakkur rivojlangan va barqaror boʻlishi taraqqiyotga erishishning eng muhim omilidir”.¹

Bugungi kunda adabiyotimiz barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, romachilikda ham sifat jihatdan oʻzgarish va yangilanish jarayoni kechmoqda. Bu narsa birinchi galda qahramonlarning maʼnaviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon boʻlayotir. Maʼnaviy qadriyatlarni bashariy mezonlar bilan oʻrganish va baholash, oʻzlikni anglashning oʻsishi, xalqimizning maʼnaviy sarchashmalar ildizlariga qaytishi asosida mustaqillik mafkurasining poydevorini mustahkamlashga intilish maʼlum darajada hozirgi davr milliy nasrida oʻziga xos tarzda namoyon boʻlmoqda.

Demak, dunyoqarashlar oʻzgarib, ularga boʻlgan munosabatlar ham bashariy miqyos kasb etgan holda insonparvarlik xususiyatlari bugungi shaxs faoliyatining oʻzak asosiga aylandi. Jamiyat asoslarini, buguni va kelajagini ezgulik va goʻzallik qonuniyatlari asosida yangilash, oʻzgartirish yangi shaxs ijtimoiy-maʼnaviy faoliyatining bosh pafosi boʻlib qoldi. Oʻzbek romanlarida badiiy ifodasini topayotgan ana shu oʻzgarishlarni nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Taʼkidlash joizki, bugungi romanchiligimizdagi qahramon masalasi olam va odamni yangicha idrok etib, yangi dunyoni bunyod etayotgan inson konsepsiyasi demakdir. Uning ruhiy takomili esa xalq va jamiyat hayoti bilan uzviy bogʻliq kechayotir. Koʻrinadiki, adabiyot va sanʼat hamisha insonni

¹ Karimov I. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. –T.: Oʻzbekiston, 1998. –B. 341.

ulugʻlab, tarannum etadi. Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan aloqalari sanʼatning, shu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, har bir davr adabiyoti oʻz qahramonlarining falsafiy-estetik dunyosi bilan bir-biridan farq qiladi. SHu maʼnoda istiqloldan oldin va mustaqillik davri romanchiligi qahramonlar badiiy-estetik dunyosi, maʼnaviy-axloqiy izlanishlari, intellektual darajasini oʻrganish, ilmiy-nazariy umumlashmalarga yasash alohida ahamiyatga ega.

Oʻzbek adabiyotshunosligida ham soʻnggi yillar romanchiligi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarning koʻlami, miqyosi, ilmiy-nazariy saviyasi bu borada yaxshi samaralarga erishayotganligidan dalolat beradi. Ularda hozirgi oʻzbek romanchiligida badiiy tafakkurning yangilanishi, milliy qahramon muammosi, badiiy-uslubiy izlanishlar kabi masalalar mustaqillik davri misolida ilmiy tadqiq etildi.

Koʻrinadiki, har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar oʻzgargani singari insonga boʻlgan qarashlar va uning talqin xususiyatlari ham yangilanadi. Insonning ijtimoiy voqelikka munosabati ham zamonlar oʻtishi bilan oʻzgaradi. Shu maʼnoda, mustaqillik davri oʻzbek adabiyoti, xususan, romanchiligida shaxsning maʼnaviy-intellektual dunyosini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan vobasta oʻrganishni hayotning oʻzi taqozo etayotir. Zero, inson shoʻro mafkurasi talqinidagiga koʻra “bir vintcha” emas, aksincha, u-jamiyatning ongli, jonli aʼzosi. U tarixni yaratuvchi, umumbashariy qadriyatlar asosida davr qiyofasini oʻzgartiruvchi buyuk kuchdir. Chunki, inson yangi ijtimoiy tuzumlarni vujudga keltirib, ezgulik, adolat, goʻzallik prinsiplari asosida dunyo qiyofasini oʻzgartirib boradi. Ushbu jarayonda u oʻz shaxsiyatini insonparvarlik, millatsevarlik, vatanparvarlik xususiyatlari bilan ziynatlaydi, yaʼni hamisha komillik masnadiga yetishish uchun kurashib yashaydi.

Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy masalalar badiiy adabiyotning o'zak mag'zini belgilab berayotir. SHunga ko'ra ulardagi konflikt ko'rinishlari ham shaxs va jamiyat, shaxslararo ziddiyat shakllarida emas, ko'proq shaxsning o'zini-o'zi yengib o'tishi, fe'l-atvoridagi noqislik illatlarini anglab yetishi, shaxsiyatidagi qusurlar bilan kurashishi singari ko'rinishlarda ifoda qilingan. Bu narsa adiblarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi shaxs ruhiyatiga, inson qalbiga ko'chganligidan dalolat beradi. Insonning o'z ko'nglida **kechayotgan hissiyotlari tahlili orqali jamiyat tartiblari va voqelik jarayoniga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi hikoyachiligimizdagi yetakchi tamoyillardan hisoblanadi. Zero, "Badiiy adabiyotning yangi xususiyatlari o'ziga xosligi birinchi navbatda inson konsepsiyasida o'z ifodasini topadi. Chunki inson konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig'i-rivoji, zamon talabi asosida tug'ilgan ziddiyatlar, muammolar, negativ holatlar o'z ifodasini topadi".¹**

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan romanlarga badiiy psixologizm-tuyg'ular realizmi tahlili nuqtai nazaridan qaraydigan va o'rganadigan bo'lsak, ular hayotni, insonni tuyg'ular tarhi, kechinmalar dinamikasi orqali badiiy tadqiq etish madaniyati shakllanganligini kuzatish mumkin. "Oltin zanglamas"da sotsiologik talqin va o'shanga mos badiiy idrok va ifoda etakchilik qilgan bo'lsa, "Tushda kechgan umrlar"da insonni falsafiy-psixologik tushunish hamda tushuntirish ustivor tamoyil hisoblanadi.

Mustaqillik, milliy mafkuraning ma'naviy asoslarini mustahkamlash sari safarbarlik adiblar ijodiga ham sifat o'zgarishlar olib kirdi. Inson va jamiyatga bashariy miqyoslardan nigoh tashlash, o'rganish va baholash madaniyati ustivor tamoyilga aylandi. SHu ma'noda, inson bebaho

¹ Karimov H. Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi: Filol. fanlari dok ...diss. -T., 1994. -B. 304.

intellektual qadriyat, degan konsepsiya mustaqillik davri o'zbek nasrining mazmun-mundarijasini ham belgilab bermoqda.

“...Hayotning har qanday sohasi va ko‘rinishining tasviri o‘quvchi fikri-zikrini band etadi. San’at asarida go‘zallikning (tabiat go‘zalligi, insonning ichki va tashqi go‘zalligi), qahramonlik (do‘stlikda, muhabbatda sadoqat va h.k) tasvirini ko‘rganimizda zavqlanamiz, quvonamiz. Xunuklik (axloqiy buzqlik, zulm, adolatsizlik, xudbinlik) kishilarning eng yaxshi hayot haqidagi tasavvurlari nuqtai nazaridan “baholanib”, ya’ni masxara qilib tasvirlanganda, bizda xunuklik emas, balki xunuklikka san’atkorning tanqidiy nazari va xunuklikning «vajohati» ni ko‘rsatib berishdagi mahorati (Tolstoy aytganidek, o‘zingda uyg‘otganing hisni boshqalarga “yuqtirish” mahorati) zavq uyg‘otadi. Bu esa san’at asarlarining katta estetik tarbiya quroli ekanligidan guvohlik beradi”.¹ Zero, akademik M.B.Xrapchenko ta’kidlaganidek, «o‘quvchilar zumrasining barcha tabaqalari va guruhlariga estetik ta’sir ko‘rsatish badiiy tafakkur takomilining barcha taraqqiyot bosqichlari uchun xos xususiyatdir”.²

3.2. Realistik tahlilda badiiy mahorat

XX asr oxiri XXI asr boshi xalqimiz hayoti yangilanishlar, o‘zgarishlar jarayoni ichra kechmoqda. Bu jarayonda voqealar nihoyatda shiddat bilan o‘zgarib, qadriyatlar yangilanmoqda. Ana shu jarayonda adabiyotimizga qanday qahramonlar kirib keldi? Ularning xarakter xususiyatlarini gavdalantirishda, badiiy idrok va tasvir prinsiplarida qanday badiiy talqinlar kechmoqda? Uning beshigini qaysi iste’dodlar tebratayapti? Ushbu savollar bugun adabiyotshunosligimizdan aniq, ilmiy jihatdan asosli javoblar kutmoqda.

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. –T.: Fan, 1978. -B. 21.

² Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа.- М.: Худож. лит., 1982.-С. 4.

Gegel haqli ravishda ta'kidlaganidek, "...hayotni badiiy idrok etishda voqelikning mag'zi nasriy asarlar asosini tashkil etadi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta anglash, ko'rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi".¹ Qolaversa, "Voqelikni realistik ifoda va idrok etishda san'atkorning estetik ideali, ijodiy nuqtai nazari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Voqelik xossalarini ikir-chikirlari, mayda tafsilotlari bilan detallashtirib tasvirlash orqali hayotning real manzarasi yaratiladi. Bu hayotni epik miqyoslarda ko'rish va ko'rsatish tamoyillaridandir. Bu-badiiy tasvir mazmundorligining realistik ifoda shakllaridan biri"² ekan, bu ma'noda "Oltin zanglamas" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida adiblarimiz bir qancha tamoyillarni yuzaga keltirgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur romanlardagi muhim fazilatlardan biri adiblarimizning shirin yolg'ondan uzoqlashib, hayotning konkret va real muammolari xususida mushohadakorlikka berilganida ko'zga tashlanadi. Negaki, adabiyotimiz uzoq yillar umumxalq baxt-saodati haqidagi va'dalar girdobida kuymalanib, aldanib yashadi. Bugun esa u o'z rivoji uchun yangi-yangi manbalar izlayapti, topayapti. Bu o'zligini tanib, bilib borayotgan, erkin va sog'lom fikrlovchi, siyosatlashmagan individual qahramonlar obrazlarini yaratishga intilishdir.

Har ikki roman mazmun-mohiyatida mahzun o'ychanlik, mulohazakorlik kuchli. Chunki unda shaxs psixologiyasini jamiyat, tabiat voqea-hodisalari bilan omuxta badiiy-falsafiy tadqiq etish tamoyili ancha teran. Ko'ngil deb atalmish ulkan dunyoning sirlarini anglashda romanlar qahramonlaridagi hissiy intellektuallikning mavqei ortgan. Zero, adabiyotshunos N.Rahimjonov ta'kidlaganidek, «badiiy fikr mo'jizakorligi shundaki, u shaxs va jamiyat siyrati bilan suvratini bir mag'izning ikki bo'lagi sifatida aks ettira olsagina,

¹ Гегель. Сочинения. - М: Худож. лит., 1958. Т. XIV.- С. 153.

² Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 47.

o‘z davrining bosh qahramoni bo‘lib qoladi. Barcha zamonlarda bo‘lgani singari yaxshi odam ham, yomon odam ham bugungi kun san’atining qahramoni bo‘lishga haqli»¹. Bundan shuni anglash mumkinki, bugungi kunda adabiyot, xususan, romanchilikda yaratilayotgan qahramonlarga ijobiy yoki salbiy jihatdan emas, balki insoniylik, insoniy burch, mas’uliyat nuqtai nazaridan yondashish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, insonga xos bo‘lgan aql va ko‘ngil tushunchalari doimo ham bir-biriga moslashmaydi:

“Qodir telegramma bermagan edi. Hammaning o‘z ishi boshidan oshib yotgan hozirgi tig‘iz paytda hech kimni ovora qilgisi kelmadi. Azizaning frontdaligini xatdan biladi. Uni kutishga oyisi-yu, Jannat kennoyisi chiqa oladi, xolos. Kim biladi, onasi akasining g‘ami ustiga Qodirning shuncha vaqt bedomu darak bo‘lib ketganidan keyin qanday ahvolga tushgan? Ehtimol g‘am bukib qo‘ygan, stansiyaga chiqishga yo kuchi yetadi, yo yo‘q!”²

Qizig‘i shundaki, odamzot hayotiy pozitsiyasi doimo cheklangan. Chunki umuminsoniy qadriyat va xislatlar nisbiy xarakterga ega bo‘lib, har bir xarakter beqarorligi ijtimoiylikka tutashadi. Shuning uchun ham badiiy xarakter yaratish mezoni xususida so‘z ketganda, qahramon ichki dunyosi tadrijini belgilash va ruhiyat mintaqalari rang-barangligini mantiqan asoslashga katta ahamiyat qaratiladi. Demak, badiiy xarakter turfa ruhiy holat-kechinmalar nisbatiga daxldor. Obraz harakat yo‘nalishini esa tasavvur va taassurotning umumkayfiyatga evrilishi belgilaydi. Binobarin, har bir adabiy talqin jarayonida ratsional rivoya texnikasi tahlil ketma-ketligini ta’minlaydi. Inson va borliq, inson va jamiyat, keng ma’noda, mavjudlik jumbog‘i idroki turfa falsafiy-estetik umumlashmani yuzaga chiqaradi. Harakat doimiy rivojlanishda bo‘lganligi bois badiiy ong shunday

¹ Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№ 6. -B. 11.

² Shuhrat. Oltin zanglamas. –T.: Sharq, 1999. –B. 364-365.

xususiyatga ega. Bu hol xarakter iroda yo‘nalishi hamda tugalligini ifoda markaziga ko‘tarishni taqozo etadi. Inson o‘z fe‘l-atvoriga ko‘ra murakkab. Chunki uning tafakkur tarzi erkin va mustaqil qutb bo‘lib, individuallikni ta‘minlaydi. Ayni paytda, ong mustaqilligi shartli mohiyatga ham ega. Adabiy qahramon o‘y-xayoli jamiyat taqozosiga ko‘ra yuzaga keladi. Demak, har bir xarakter hissiy idroki bir qadar tor va xususiy ma‘noda olinganida ham obektiv mohiyatga daxldorlik kasb etadi.

Ko‘rinadiki, fojeiy qismlarni realistik o‘zanda tasvirlab berish ham san’atdagi go‘zallikning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biridir. SHu ma‘noda aytish mumkinki, “kishilararo munosabatda go‘zallikni xunuklik, eskiliklardan ajratib olish, ajratib olganda ham, realistik san’at qonuniyatlari chegarasidan chiqmasdan, uni kitobxonga ta’sir qiladigan darajada jozibali, zarur paytlarda biroz qabartirib, romantik rang berib aks ettirish oson ish emas. Kishilararo munosabatlarda ro‘y beradigan hayot go‘zalliklarini, «mana men» deb ko‘zga yarq etib tashlanavermaydigan hayot murakkabliklari orasida yashiringan, aksariyat paytlarda hayotning mayda ikir-chikirlariga qo‘yilgan go‘zallik namunalarini chinakam iste’dodli realistlargina o‘z vaqtida butun borlig‘i, ko‘rkamligi bilan his qilib anglay oladi. O‘z asarlari bilan uni boshqalarga ham his qilish va anglab olishga vositachi bo‘la oladi”.¹

Har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda yozuvchining iste’dodi, mahorati va matonati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Iste’dod-murakkab ijtimoiy muhit. Iste’dod-yozuvchining ijodiy kuchlari kompleksi va uning ijod qilish ishtiyoqi, shunga layoqati, qobiliyati”.² Shuning uchun ham iste’dodi yuksak adiblar asarlarida o‘z davrining ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etib turadi.

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon. II jild. -T.: Fan, 1979. -B. 162.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T.: O‘zbekiston, 2002. -B. 63.

Bu narsa esa asar qahramonlarining faoliyati va xarakter xususiyatlari orqali ifodalanadi. Illo, «Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir».¹

“Haqiqiy san’atkor qay davrda yashashidan qat’i nazar, hayotning taraqqiyot tendensiyalarini shunga qarab belgilashi uning birinchi darajali ijodiy yutuqlaridan hisoblanadi”² - degan edi, I.Sulton. Qolaversa, V.G.Belinskiy uqtirganidek, “...badiiy asarda tasvir etilayotgan go‘zallik hayotning o‘zida mavjud va shu go‘zallikni yorqin ko‘rsatishning o‘zi badiiylilik va haqqoniylikning birinchi shartidir”.³

Akademik I.Sulton ta’kidlaganidek, «realizm hayotdan nusxa ko‘chirish emas, hayotni fikr “elagidan» o‘tkazib, uning «mag‘zini chaqib» tasvirlashni talab etadi”.⁴ Bu narsani akademik M.B.Xrapchenko asarlarida yanada chuqur ta’riflangan holatini kuzatamiz. “Realistik metodning mohiyatini, uning jonini, qalbini ijtimoiy tahlil, insonning ijtimoiy tajribasini tadqiq va tasvir qilish orqali shaxs bilan jamiyat orasidagi sotsial munosabatlarni, hamda jamiyatning ichki tartiblarini o‘rganish va tasvir etish tashkil qiladi”.⁵

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.-B. 38.

² Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild.-T.: Fan, 1979. -B. 162.

³ Белинский В.Г. Полное. собр. соч. – М.: Наука, 1954. Т. 5. -С. 556.

⁴ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1980.-B. 306.

⁵ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы.- М.: Худож. лит.,1970. - С. 191.

X U L O S A

Har bir davr ruhiyati jamiyat rioya qilishi joiz bo'lgan ma'naviy mezonlarni belgilaydi. Binobarin, inson axloqiy fazilatlari jamuljami ijtimoiy ong muhim qirrasi – badiiy adabiyot sajiyasini ham tayin etadi. Hayot va ruhiyat, kishi va muhitni tutashtiradigan ehtiyoj doimo idrokni taqozolaydi. Unda shaxs maqsad va intilishlari, qiziqish va manfaatlari barqarorlashadi, unda odamzod iroda yo'nalishi o'ziga xosligi va sog'lom e'tiqodi butunligi markazlashadi, unda inson hissiy ilg'ami shiddati va aqliy salohiyati bosimi o'zaro to'qnashadi, unda ruhiy kechinma zichligi va g'oya ma'rifati falsafiy teranligi bir-biriga qorishib ketadi.

XX asr o'zbek adabiyoti o'ziga xos an'analar, badiiy mezonlar asosida shakllandi. Hozirgi o'zbek nasri ravnaqida jiddiy o'sish-o'zgarishlar yuz berdi. Jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analarni realistik yo'sinda tasvirlovchi, badiiy tadqiq etuvchi asarlar bilan bir qatorda yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlar yuzaga keldi. Adabiyotimizda xilma-xil falsafiy zaminga asoslangan adabiy-ijodiy tamoyillar paydo bo'ldi. Ularning ildizlari XX asrning 80-90- yillar adabiyotiga, o'sha davr hayotiga bag'lanadi. Aniqroq qilib aytganda, o'z mafkurasini odamlar ongiga singdirib, "mixlab tashlagan" jamiyatning yaroqsizligi, tanazzuli oqibatlari, fojialari milliy adabiyotimizda ham xilma-xil insonlar taqdiri vositasida ochib beriladi.

XX asrning 80- yillar oxiri, 90- yillar boshlaridagi jamiyatda yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, tabiiyki, insonlar hayotiga ta'sir etmay qolmadi. Shu sababdan, o'sha davr muhiti adabiyotda yangicha inson obrazini yaratilish va voqea-hodisalarga sog'lom munosabatni ifodalashga bo'lgan ehtiyoj tug'ildi.

Tarixiy haqiqatni davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta – haqqoniy baholash ham ma'naviy, ham ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Mavjud holat vatan, ozodlik, millat mavzulari ustuvorligini mustahkamlashda muayyan mohiyatni yuzaga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, mavzu tahlili milliy ong bilan munosabati doirasida yoritish shuni ko'rsatadiki, joriy masala tadqiqoti uch xil yo'sinda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tipologik talqin tarixiy haqiqatni teran anglashga yo'l ochadi. Zamondosh qalbidan o'rin olgan va kelajak avlod tajribasida asqotadigan taomillar millat mentalitetiga manfaat keltirishi shubhasiz. Ikkinchidan, analogik tahlil har bir ijodkor alohidaligini oydinlashtirish barobarida davr ruhiyatini idroklash imkonini beradi. Zotan, bir-biridan tamomila farq qiladigan adiblar ijodi taqqosi adabiy rivojlanish qonuniyatlarini belgilashga yordam beradi. Mavjud holat millat ijtimoiy mavqei himoyasiga xizmat qiladi. Uchinchidan, milliy qadriyatlariga munosabat teranlashayotgan pallada tarixiy mavzu talqini milliy mansublikka daxldorlik kasb etadi. Agar qiyosiy adabiyotshunoslik asarlarni o'rganishda ularning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilsa, bu uning eng katta yutug'idir. Chunki, biron asar boshqa asarga solishtirilgandagina uning ko'lamdorligini, mavzuviy-mazmuniy boyligini, yozuvchi mahorati hamda ijodiy individualligini to'laqonli anglash hamda anglatish mumkin bo'ladi.

Badiiy asar badiiy kommunikasiya vositasi ekanligi, kommunikasiyaga kirishayotgan subyekt uchta asosiy maqsad (reprezentativ, ekspressiv, apelyativ)ni ko'zlashini ilgari aytgandik. Modomiki, "Tushda kechgan umrlar"da har uchala adabiy turga xos xususiyatlar uyg'unligi haqida gapirarkanmiz, ulardan har biri shu uch maqsadning amalga oshishida qanday o'rin tutishi xususida ham to'xtalib o'tish joiz. Tabiiyki, "Tushda kechgan umrlar"da informasiya asosan dramatik va epik unsurlar vositasida yetkaziladi. "Oltin zanglamas"da teran tahliliy yandashuv ustuvor. Biroq o'sha informasiyani tom ma'nodagi badiiy informasiyaga aylantiruvchi narsa

muallif shaxsi ekanligi ham ravshan. Zero, dramatik va epik unsurlar obyektivlik illyuziyasini hosil qilsalar-da, muallif ongiyu qalbida qayta ishlanganliklari uchun ham subyektivlikdan holi emaslar. Ayni paytda, qahramonlar hayotida yuz berayotgan voqealar-tasavvurimizdagi “sahna”da kechayotgan ko‘rinishlar o‘z holicha ham o‘quvchiga ta’sir qila oladi. Shunisi ham borki, dramadagi kabi bu o‘rinda ham muallif shaxsi qisman dialoglarga singdirib yuborilgan. Ko‘ramizki, muallif badiiy voqelikda akslangani kabi, badiiy voqelik ham muallif orqali akslanadi. Demak, epik, dramatik va lirik unsurlar o‘zaro organik birikib, uyg‘un butunlikni tashkil qiladiki, ularning har birini alohida olib ko‘rishga intilishimiz shartli – faqat asarni tushunish yo‘lidagi amallardan biri sanaladi.

Adabiyot yetakchi estetik belgilaridan biri badiiy yaxlitlikda namoyon bo‘ladi. Chunki badiiy asar mukammal poetik tizim bo‘lishi uchun mohiyat tugalligi ta’minlanmog‘i lozim. Bu esa janr, matn va adabiy tizim orasida shakllanadigan mantiqiy aloqa uzviyligini taqozo etadi. Zero, ijod falsafasida chambarchaslik qonuniyati bir jihatdan, qadriyaviy mezon va biosotsiologik maydon ichki munosabatiga bog‘liq. Ayni paytda, ma’no ichki butunligi yonma-yon joylashgan badiiy shakl muqarrarligidan tashqari, ularning bir-biridan keskinlashgan tafovutini ham talab etadi. Negaki, badiiy ijod jarayonida janr poetik uyg‘unlikni ta’minlovchi etakchi omil sanaladi. Agar biz Shaxs maqomi tabiat va jamiyat uzviy aloqadorligini birlashtirishini nazarda tutsak, joriy holatni badiiy tizimga muqoyasa qilishimiz oson kechadi. Aynan poetik butunlik zalvori janr turg‘unligi, tasvir idroki va ruhiy kechinma hayotiyliги o‘zaro aloqasini tutashtiradi.

Voqea-hodisalarga salbiy munosabat, inkor ruhining kuchliligi, hodisaning dahshatli manzarasini keskin, qabariq tarzda chizib berish, hodisa mohiyatini bor ziddiyatlari, qahramon ruhiyatini butun murakkabliklari bilan o‘quvchiga his qildirish uchala adib ijodiga xos fazilatlardan biri sanaladi.

Shuningdek shaxs tabiatining ayrim jihatlarinigina aks ettiruvchi asarlar bilan bir qatorda, inson ruhiyati, borlig'iga xos umumiy xarakter-xususiyatlardan alohida chizgilarga o'tuvchi tasvir uslubini namoyon qiluvchi yo'nalish inson ruhiyatining keng olam ekani, uning hech qanday qolipu andozalarga sig'maydigan, cheksiz, turfa holatlarini badiiy jihatdan inkishof etishga urinish singari yaratilgan badiiy asarlar haqiqatdan ham an'anaviy realizm qoliplarini yorib chiqib, adabiyotda yangi badiiy hodisalarga aylanmoqda.

Tadqiq etilayotgan romanlar o'zining mazmuniy-g'oyaviy mundariyasi bilan XX asrda xalqimiz boshiga tushgan og'ir kunlar haqida avlodlarga achchiq xaqiqatidan hikoya qiladi. Shu o'rinda "Oltin zanglamas", "Tushda kechgan umrlar" asarlari o'xshashligi va bir-biriga yaqinligi diqqatni tortadi. Quyida har ikkala roman o'xshash va farqli jihatlar haqida to'xtalib o'tamiz:

- har ikki matn ham roman janri talablariga muvofiq yozilgan;
- voqealar tasvirlangan vaqt – sobiq Ittifoq hukmronlik yillari adog'ini poetik tahlil obyektiga ko'taradi;
- asarlar motivizatsiyasi va mavzu talqinida tipologik mushtaraklik ko'zga tashlanadi;
- har ikki roman bosh qahramoni ziyoli qatlamdan. Sodiq – oddiy o'qituvchi, Rustam-talaba, joriy holat bejizga tanlanmagan, ziyolilar jamiyat ma'naviy iqlimini hosil qiladi;
- qahramon oilaviy baxti to'kis emas, farzandsizlik muammosi uchovida ham mavjud;
- asarlar sirga chulg'angan holda boshlanadi. "Oltin zanglamas" da Sodiqning xotini Jannat Mirsalimni "o'g'ri mushuk"ka o'xshatib "shu odamdan yaxshilik chiqmasligi" haqida gapirib, o'quvchini keyingi voqealarda Mirsalimdan yomonlik kuta boshlashiga zamin hozirlasa, "Tushda kechgan umrlar" romani esa Rustamning oxirgi kundaligi bilan

boshlanib, so‘ng esa asardagi har kungi yumushlarga o‘tib ketadi. Muallif asosiy voqealarga o‘quvchini kichik epizodlar orqali olib o‘tadi;

- romanlarda urush tasviri keltiriladi. “Oltin zanglamas”da ikkinchi jahon urushi manzaralari berilsa, “Tushda kechgan umrlar”da ikkinchi jahon urushi va afg‘on urushi manzaralari o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi;

- romanlarda siyosiy mahbuslarning tergov izolyatorlaridagi tergov jarayoni o‘z aksini topgan. “Oltin zanglamas”da bu jarayon asosiy voqaealarda berilsa, “Tushda kechgan umrlar”da komissarning xotiralari va Ilhom akasining Rustamga otasi, otasining qamalishi haqida gapirib bergan suhbatida gavdalanadi;

- har ikki romanda ham paxta masalasi ko‘tariladi. Agar “Oltin zanglamas”da voqealar rivojida shunchaki aytilib ketilsa, “Tushda kechgan umrlar”da asosiy mavzuga aylanadi. “O‘zbeklar ishi” sohta aybnomalarining kelib chiqishi ham paxta vasvasasi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi;

- romanlarda sotqin, chaqimchi, qatag‘on mashinasining muruvatlari bo‘lgan kishilar obrazi yaratilgan. Mirsalim, Sulton sulloh, Komissar obrazlari. Mirsalim va Komissar obrazlari butun fojining yuzaga kelishida sabab bo‘lganliklar yoritilib, ular tirik inson tarzida gavdalansa, Sulton sulloh obrizi butun asarning faqat ikki joyidagina bo‘y ko‘rsatgan, obrazning mohiyati ochilib, uning voqealar rivojidagi o‘rni yaxshi yoritib berilmagan, obrazning mohiyati o‘quvchiga mavhumligicha qoladi. Sulton sulloh asar kompazitsiyasida muhim rol o‘ynamay, epizod tarzida qoldirilgan;

- qahramonlar hahoti fojiiyaviy yakun topadi;

- “Oltin zanglamas”da qahramonning oqlanishi va asarning nomi bilan bog‘liq holda, kelajakka umid, adolat tantanasiga ishonch g‘oyasi o‘z aksini topgan bo‘lsa, “Tushda kechgan umrlar”da mustabid tuzumga bo‘lgan ishonchsizlik, qizil imperiyada umrlar tushda kechgandek havoga sochilgan hayotga nisbatan achinish bo‘y ko‘rsatadi;

– “Oltin zanglamas” romanida “buyuk terror yillari” fojialari yoritilsa, “Tushda kechgan umrlar”da qatag‘onning qamrovi katta olingan bo‘ib, unda qatog‘onning to‘rtta davrini yoritadi.

Yuqorida biz Shuxrat va O‘tkir Hoshimovlarning xalqimiz tarixida eng fojiyaviy davr sobiq ittifoq hukmronligi davri yoritilgan asarlarini qiyoslab o‘rganishga harakat qildik. Tadqiqot jarayonidan ma’lum bo‘ldiki, bu asarlarni boshqa yozuvchilarning ham ayni mavzudagi asarlari bilan qiyoslash mumkin.

Agar qiyosiy adabiyotshunoslik asarlarni o‘rganishda ularning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilsa, bu uning eng katta yutug‘idir. Chunki, biron asar boshqa asarga solishtirilgandagina uning ko‘lamdorligi, mavzuviy-mazmuniy boyligi, yozuvchi adabiy mahoratini anglash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR KO'RSATKICI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
3. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat. –T.: Yangi asr avladi, 2004.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1979.
5. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: O'zbekiston, 1997.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.
7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z sehri. –T.: Adolat, 2004.
8. Jo'rqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Fan, 2006.
9. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
10. Karimov B. Yangililanish sog'inchi. –T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.
11. Karimov N. XX asr adabiyoti adabiyoti manzaralari. –T.: O'zbekiston, 2008.
12. Mamajonov M. Saylanma. – T.: Adabiyot va san'at, 1981.
13. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
14. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
15. Mustaqqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san'at, 2006.
16. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san'at, 1980.
17. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma'naviyat, 2000.
18. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.
19. Umurov H. Tahlil san'ati. –T.: Adabiyot va san'at, 1978.
20. Umurov. Adabiyot nazariyasi –T.: Sharq, 2002.
21. Xalizev V.Y. Tyeoriya literaturi. Izd. 3. – M.: Bisshaya shko'la, 2002.
22. Parandovskiy Yan. So'z kimyosi / Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Ma'naviyat, 2010.
23. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. –T.: Fan, 2006.

24. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: Sharq, 2007.
25. Rizayev Sh. Ma'naviyat manzillari. –T.: Adabiyot va san'at, 2008.
26. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
27. Sodiqov S. Ijodning o'ttiz lahzasi. –T.: Sharq, 2005.
28. Sulton I. Adabiyot nazariyasi . – T.: O'qituvchi, 2005.
29. To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. –T.: Yangi asr avlodi . 2004.
30. Sharofiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
31. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish . –T.: Fan, 2007.
32. Quronov D. Mutoala va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013.
33. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007.

Internet va Ziyonet saytlari

34. <http://www.literature.uz/>;
35. <http://www.ziyouz.com/>.